

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

“Himoyaga tavsiya etildi”
Pedagogika-psixologiya fakulteti
dekani dots. _____ T. Rasulov
“ _____ ” _____ 2012 yil

PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI
5141700 – “Maktabgacha ta‘lim va bolalar sporti” yo‘nalishi
4-kurs 405-guruh talabasi
CHORIYEVA ZILOLANing
“Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma‘naviy -axloqiy tarbiyalashda
tarbiyachining roli” mavzusida yozgan

Ilmiy rahbar: _____ o‘q.T.Ashurova
“ _____ ” _____ 2012 yil

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Ijtimoiy pedagogika psixologiya va
maktabgacha ta‘lim kafedrası
mudiri _____ p.f.d. dots. X.Karimov
“ _____ ” _____ 2012 yil

Qarshi – 2012

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY -AXLOQIY TARBIYALASH NING NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy -axloqiy tarbiyalash ga qo'yiladigan pedagogik talablar.....	11
1.2. O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy ta'l[motida ma'naviy- axloqiy tarbiya masalalari.	41
II BOB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY –AXLOQIY TARBIYALASHNING AMALIY ASOSLARI.	
2.1.. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy -axloqiy tarbiyalashda tarbiyachining vazifalari.....	51
2.2 Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy -axloqiy tarbiyalashning shakl vausul lari.....	65
XULOSA VA TAVSIYALAR.....	75
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	77

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi: Mustaqillik yillarida Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan «Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch» nomli asarda- «**Taʼlim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida boʻlishi asosiy qonunimizda belgilab qoʻyilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qoʻllab quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir...**»deb taʼkidlanadi.

Ushbu asarda taʼlim - tarbiya oldidagi vazifalar borasidagi fikrlar davom ettirilib, «Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday boʻlishi farzandlarimizning bugun qanday taʼlim-tarbiya olishiga bogʻliq.

Buning uchun har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni koʻrishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqib, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega boʻlgan, ongli yashaydigan barkamol insonlar etib voyaga yetkazish-taʼlim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi boʻlishi lozim...». **Barchamizga ayonki, inson qalbiga yoʻl avvalo taʼlim –tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa. Ajdodmiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun yaqin boʻlgan yana bir buyuk zot oʻqituvchi va marabbiylarning oliyjanob mehnatini xutmat bilan tilga olamiz.**

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkaur sohiblarini tarbiyalashdek masʼuliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalkariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga oʻrnimizga keladigan yoshlarning maʼnaviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini oʻzimizga yaxshi tasavvur qilamiz. Inson oʻz umri davomida qanday yutuq va natijalarga erishmasin, qayerda, qanday lavozimda ishlamasin, maktab dargohida olgan taʼlim tarbiyasi uning yetuk shaxs va malakali mutaxassis boʻlib shakllanishida ulkan ahamiyatga ega ekani shubhasiz.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, maʼrifatparvar bobolarimizning fikrini davom ettirib agarki dunyo imoratlari ishida eng ulugʻi maktab boʻlsa, kasblarning ichida eng shataflisi oʻqituvchilik va marabbiylikdir.

Mustaqillik yillarida milliy istiqloq gʻoyasining asoslanishi esa jamiyat hayotining barcha sohalarida keng koʻlamli islohotlarni yanada jadal amalga oshirish orqali rivojlangan demokratik davlatlar darajasida taraqqiy etishning samarali yoʻnalishlarini belgilab olish imkoniyatini yaratdi.

Oʻzbekiston Respublikasining **“Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni** hamda **Kadrlar tayyorlash milliy dasturida** davlat taʼlim siyosatining mohiyati toʻliq ochib berilgan. Ijtimoiy-taʼlimiy qarashlarni oʻzida mujassam ettira olgan mazkur hujjatlarda qayd etilishicha, umumiy pedagogik jarayonning asosiy maqsadi “taʼlim sohasini tubdan isloh qilish, uni oʻtmishdan qolgan mafkuraviy

qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir”

Kadrlar tayyorlash milliy modeli tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan shaxsni har tomonlama kamolga yetkazish, yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos bo'lib, unda faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarda kasbiy ko'nikma va malakalarni tarbiyalashda xususan bo'lajak tarbiyachilarni kasbga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlangich turi xisoblanib, u O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim tug'risidagi Qonun»i va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari» orqali nazorat qilinadi.

Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib u davlat xujjati sifatida e'tirof etiladi.

Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish xissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7ga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda bo'lajak tarbiyachilarni kasbga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiyani samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

O'z kasbini sevuvchi malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

Maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

Bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;

Zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axlokiy jixatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

Maktabgacha ta'lim muassasalarining xar-xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;

Maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish kabi vazifalarni maqsad qilib qo'yadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta'lim To'g'risidagi Nizomda maktabgacha ta'limga alohida urg'u berilib, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich turi hisoblanadi, hamda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», talablari asosida tashkil etiladi.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida yosh avlodni yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, ularni yetuk shaxs bo'lib voyaga etkazishga oid pedagogik g'oyalar, barkamol shaxs tarbiyasining mazmun, shakl va metodlari o'z aksini topgan bo'lib, ular bugungi kunda ham muhim pedagogik qiymatga ega. Ushbu asarlarda inson tafakkurini rivojlantirish, aqliy-axloqiy etuklik va jismoniy barkamollik, estetik madaniyatni shakllantirish masalalari ham ilmiy ham amaliy jihatdan o'z echimiga ega bo'lgan. Shuningdek, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa'diy, Abdirahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Ali ibn Sino va boshqa mutafakkirlarning barkamol shaxsni tarbiyalashga oid qarashlari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati turk", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Nazmul javohir", "Lison ut-tayr" va Abu Ali ibn Sinoning "Donishnoma", "Tadbiri manozil" asarlaridagi pedagogik g'oyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash borasida sharq mutafakkirlari bir qancha qimmatli fikrlarni bayon etgan bo'lib, hozirgi kunda ham bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shuning uchun biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini "Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy -axloqiy tarbiyalashda tarbiyachining roli"-deb nomladik.

P.Yusupova va boshqalarning ishlarida maktabgacha ta'lim muassasalari va unda faoliyat yurituvchi tarbiyachilar shaxsiga qo'yiladigan talablarga doir izlanishlar amalga oshirilgan.

Biroq, muammoni nazariy jihatdan o'rganish tarbiyachilarni bolalarni ma'nan yetuk inson qilib tarbiyashda ta'lim muassasalarining imkoniyatlari fanlar kesimida yetarlicha tahlil qilinmaganligini, bu jarayonning mazmuni va muhim tamoyillari bugungi kun talablari darajasida asoslanmaganligini ko'rsatdi.

Mustaqillikni mustahkamlash uchun ulug'vor ishlarni amalga oshirayotgan o'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Ushbu g'oyani amalga oshirishda ijtimoiy iqtisodiy yo'nalishlar bilan bir qatorda ma'naviy - ma'rifiy soha ham muhim o'rin tutadi. Darhaqiqat bugungi kunda fuqarolik jamiyatini qurishda ma'naviyat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda mustaqillik qo'lga kiritilgan daslabki kunlarda boshlab. Ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar davomida qadriyatlarimizni tiklashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero xalqimiz o'z taqdiri va tarixining xaqiyqiy egasi, o'ziga xos milliy qadriyatlarning, madaniyatning ijodkori ekanligini namoyon etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning shaxsan tashabbusi bilan keyingi yillarda ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston 21-asr bo'zag'asida:xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti poydevori", "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "O'zbekiston 21 – asrga intilmoqda", "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz" kabi asarlarida jamiyatimizni manaviy jihatdan yangilash va rivojlantirish, umum insoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatini erkin namoyon qilishi va Vatanparvarlik kabi asosiy maqsad va vazifalar ko'rsatib berilgan I.A.Karimovning "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz" asarida 21 – asrning daslabki yillarida va undan keyin ham ma'naviyat sohasida amalga oshiriladigan vazifalarni aniq belgilab berar ekan:"Bu sohadagi asosiy vazifamiz milliy qadriyatlarimizni tiklash o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni ischillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir" deb takidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da:"Yosh avlodni ma'naviy axloqiy tayyorlashda xalqning boy madaniy – tarixiy ananalariga, urf – odatlari umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Ma'lumki, ta'lim tizimining birinchi bosqichi sanalgan maktabgacha ta'lim sohasi ham bozor iqtisodiyoti va zamon talabi nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Zamonaviy,

butunlay yangi tarkibdagi va yagona uslubdagi maktabgacha ta'lim hayot taqqazosi bilan tashkil etildi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishida chuqur nazariy va amaliy bilimlar hamda kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi muammolarni to'g'ri baholay bilishi va hal eta olishi, turli vaziyatlarni tanqidiy baholashi, umum insoniy fazilatlariga ega bo'lishi, o'z millati va Vatanini sevishi, u bilan faxrlanishi, milliy urfodatlar va qadriyatlarni hurmat qilishi, ma'naviy – ahloqiy, siyosiy ekologik madaniyati, fuqarolik burch va masuliyati hissi shakllangan etib tarbiyalash bo'lajak tarbiyachilarni asosiy maqsadi qilib qo'yadi. Ma'lumki MTMda tarbiyalanuvchialarni ma'naviy ahloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda ular ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish muhim masalalardan biridir. Bu sohada malum bir tajribalar to'plangan shu bois biz tadqiqotimizda maktabgacha ta'lim muassalarida bolalarni ma'naviy – ahloqiy tarbiyalashning ilmiy pedagogik asoslarini yaratishga e'tiborni qaratdik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy- ahloqiy tarbiyalashning nazariy asoslarini, hamda uni amalga tatbiq etishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi mutaxasislari chuqur nazariy va amaliy bilimlar hamda kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi muammolarni to'g'ri baholay bilishi va hal eta olishi, turli vaziyatlarni tanqidiy baholashi, umum insoniy fazilatlariga ega bo'lishi, o'z millati va Vatanini sevishi, u bilan faxrlanishi, milliy urfodatlar va qadriyatlarni hurmat qilishi, ma'naviy – ahloqiy, siyosiy ekologik madaniyati, fuqarolik burch va masuliyati hissi shakllangan etib tarbiyalashni'

hamda uni amalga tatbiq etishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat .

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy asosi, mazmuni, tamoyillari, shakl, metod va vositalari.

Bitiruv malakaviy ishi metodlari: Bitiruv malakaviy ishini amalga oshirish jarayonida mavzuga doir pedagogika, psixologiya ga oid ilmiy-nazariy, metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish, pedagogik kuzatish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy t jihatdan tarbiyalash muammo nuqtai-nazaridan o'rganildi va tahlil qilindi;

- Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy- axloqiy tarbiyalashda ta'lim muassasalarining imkoniyatlari aniqlandi;

-Ta'lim muassasalari imkoniyatlaridan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy- axloqiy tarbiyalashning eng maqbul yo'llari va texnologiyalari ishlab chiqildi;

- tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy- axloqiy jihatdan tarbiyalashlariga oid ilmiy-metodik tavsiyalar yaratildi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati: Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy- axloqiy jihatdan tarbiyalashning nazariy asoslanganligi, hamda uni amalga tatbiq etishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqishganligi bilan tavsiflanadi.

Bitiruv malakaviy ishning natijalaridan Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy- axloqiy tarbiyalash amaliyotini yangilash, o'quv-metodik majmualar tayyorlash, shuningdek metodik tavsiyalardan maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun uslubiy qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi: Bitiruv malakaviy ish kirish, mustaqil ikki bob, , umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati dan iborat bo'lib, umumiy hajmi 78 betni tashkil etadi.

I BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY -AXLOQIY TARBIYALASH NING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy -axloqiy tarbiyalashga qo'yiladigan pedagogik talablar.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich turi hisoblanib, u O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonun»i va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga kuyiladigan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabga o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat.

Maktabgacha ta'limning vazifalari: bolalarni xalkning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jixatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish extiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari» orqali nazorat qilinadi.

Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmunining asosiy yunalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib u davlat xujjati sifatida e'tirof etiladi.

Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash» tayanch dasturi asosida amalga oshiriladi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'limning asosiy omili bo'lgan kadrlarni tayyorlash borasidagi eng zarur tadbirlar tizimi belgilab berilgan. Sog'lom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustivor yunalishidir.

Davlat talablari asosida tuzilgan «Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch dasturi»ga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari, tarbiyachilari, hamda, o'zlari

uchun turli sohalar bo'yicha dasturlar, qo'llanmalar, tavsiyalar, qiziqarli kitoblar, aqlan va jismonan rivojlantirishga yordam beradigan turli-tuman o'yinchoklar va ta'lim tarbiya qurollari yoritiladi.

. Uzluksiz ta'limni isloh qilish, uzluksiz ta'lim tizimi va turlari masalalarini qamrab olgan. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek «Har bir insonning ayniqsa endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta ha qo'yilgan maqsadga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsalar ularning sobit qadam, g'ayrat shijoatiga to'la-to'kis fidokorligi va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak».

Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot- jamiyatimizning tanasi bo'lsa, ma'naviyat-ma'rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruhi, aqli va jonidir. Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma'rifatli, ayni paytda o'zining o'tmishi, ulug' qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak”.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda xalq ta'limi tizimi faoliyatini me'yorlashtiruvchi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek, “O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida Nizom” kabi muhim davlat hujjatlari qabul qilindi.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 30-moddasi orqali farzandlar tarbiyasi va ta'lim olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o'rni va javobgarligi oshirildi.

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar va tengdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo'yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi.

Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda “Men” kontseptsiyasini shakllantirish ham muhimdir.

O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida Nizom” ga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalarning mustaqil ravishda ta'lim va tarbiya berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim muassasalarida, shuningdek,

muassasaga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta'lim muassasasida yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

Bolaning maktabga tayyorgarligi undagi idrok, kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar olami, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan belgilanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari yuqorida quyidagidek etilgan vazifalarni amalga oshirishdagi me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Respublikada idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar maktabgacha ta'lim tizimi hamda oilalarda bolani to'laqonli tarbiyalash, ta'lim berish va rivojlantirish, uni maktabga samarali tayyorlashda qo'llanishi majburiy bo'lgan davlat hujjatidir.

Davlat talablari 0-7 yoshli bolaning qay darajada rivojlanganligi va egallagan yutuqlarini baholab boruvchi talablar bo'lib, ular bilim, malaka va ko'nikmalar rivojlanishining ko'rsatkichlarini belgilaydi:

- 1 Jismoniy rivojlanish, o'z - o'ziga xizmat va gigiena
- 2 Ijtimoiy - hissiy rivojlanish
- 3 Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik

Bilish jarayoni, atrof olam to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish.

Mazkur 4 ta yo'nalish 0 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'z-o'ziga xizmat ko'nikmalarining shakllanishi, nutq, o'qish va savodga tayyorlash darajasini, atrof-olam haqidagi tushunchalarni va qo'yilgan talablarni egallashi uchun asosiy omil hisoblanadi.

U maktabgacha ta'lim tizimining mohiyatini belgilaydi va maktabgacha ta'lim muassasalarini mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha bolalarning tengligi va bolalik qadriyatini saqagan holda har bir bolaning individual) rivojlanishini ta'minlashga yo'naltiradi.

Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ma'muriy daxldorligi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, quyidagi ta'lim muassasalarida qo'llanishi majburiydir:

- ommaviy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida;

- maktabgacha guruhlari mavjud bo'lgan "Mehribonlik" va go'daklar uylarida;
- xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limlarining maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi sho'xbalarida;
- o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarining maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlarni tayyorlovchi fakultetlarda;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimi kadrlari malakasini oshirish muassasa va tashkilotlarida.

Davlat talablarini ishlab chiqishda shaxs rivojlanishining 4 ta yo'nalishi asos qilib olindi (jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiena; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik; bilish jarayoni va atrof-olam to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish).

Yo'nalishlar asosiy bo'limlarga bo'lingan va shu bilan birgalikda, ular bolaning me'yorda rivojlanish ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Ushbu davlat talablari kadrlar tayyorlash sifati, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablar, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi hamda ota-onalarning bola rivojlanishiga oid ko'nikma va malakalari mexanizmini belgilaydi.

Davlat talablari 0 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari mezonlarini aks ettiruvchi, ularning o'sish dinamikasi, rivojlanishlari holatini aniqlash, ta'lim-tarbiya jarayoni va maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish;

- 1 sifatli ta'lim ko'rsatish xizmatlari, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- 2 kadrlar tayyorlash sifati va ta'lim faoliyatining tartibini belgilash;
- 3 bola shaxsi asoslarini shakllantirish hamda uning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish;
- 4 bolaning intellektual shaxs sifatida va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- 5 bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- 6 bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash.

Davlat talablarining vazifalari:

- 1 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishga har tomonlama yondashuvni ta'minlash;

- 2 maktabgacha ta'lim metodikasini yaxshilash;
- 3 kichik yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish o`quv dasturlarini yaratish;
- 4 maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari malakasini oshirish (pedagog kadrlarni o`qitish o`quv rejalari);
- 5 maktabgacha ta'lim monitoringi va tahlilini olib borish;
- 6 kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;
- 7 ota-onalarga bolalarning rivojlanishi va ularni maktab ta'limiga tayyorlashga oid bilim, malaka va ko`nikmalarga erishishlarida yordam ko`rsatish;
- 8 jamiyatda maktabgacha ta'limning nufuzini ko`tarish.

Davlat talablarining ishlab chiqilish jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- 1 barcha bolalar, jinsi, etnik kelib chiqishi, dini, ijtimoiy ehtiyojlari, madaniy mansubligi, salomatligi va alohida ehtiyojlaridan qat'iy nazar ta'lim tizimida teng imkoniyatli bo`lishi;
- 2 bolalar o`yin orqali yaxshiroq o`zlashtiradilar. Ta'lim olish jarayonida ta'lim berish vositasi sifatida o`yindan foydalaniladi;
- 3 bolaning atrof-olamni yaxlit qabul qilishi;
- 4 bolalarning rivojlanish va ta'lim olishlari tarbiyachilarning tayyorgarligi va kasbiy salohiyatlari, bolalar va ularning ota-onalari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Respublikamizda Davlat talablarini bajarish vositalari mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, o`zi va atrofdagilarga nisbatdan ma'suliyatni his qilish, o`zligini anglash, tolerant xatti-harakat, vatanparvarlik, do`stlik va hamjihatlikni tarbiyalashdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish va rivojlantirish talablariga yaxlit yondashuvga bola shaxsi barcha sohalarining o`zaro ta'siri va bir-birini to`ldirishi orqali erishildi.

O`zbekiston Respublikasida «Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari» ko`p sonli ilmiy tadqiqotlarga tayanib, bolalarning rivojlanish va ta'lim olishlarini to`rt asosiy yo`nalishga ajratadi:

1. Jismoniy rivojlanish, o`z - o`ziga xizmat va gigiena
2. Ijtimoiy - hissiy rivojlanish
3. Nutq, o`qish va savodga tayyorgarlik

Bilish jarayoni, atrof-olam to`g`risidagi bilimlarga ega bo`lish.

O`zbekiston Respublikasida 0 dan 7 yoshgacha (0-84 oy) bo`lgan Davlat talablari quyidagi yosh guruhlarga bo`lingan:

0-6 oy; 6-12 oy; 12-24 oy; 2-3 yosh (24-36 oy); 3-5 yosh (36-60 oy); 5-7 yosh (60-84 oy);

Yosh oraliqlari va bolalarning ularga mos guruhlanishi maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil qilishga oid huquqiy yo'riqnomalarga asosan belgilangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish 6-7 yoshdagi bolalarni maktabga to'la- to'kis tayyorlashga, maktabda beriladigan ta'limni mukammal o'zlashtirishga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni uch boskichda amalga oshiriladi:

1. Bolalarni jismonan rivojlantirish.
2. Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish.
3. Bolalarni ma'nan rivojlantirish.

Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalariga tayangan holda maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini quyidagi metod va usullar bilan tanishtirish talab qilinadi:

- maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalarini yaxshi bilishlari;
- bolalarning maktab ta'limiga umumiy va maxsus tayyorgarligi tushunchalarini bilishlari;
- bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashni aniqlash yo'llari va metod, usullari to'g'risida bilimga ega bo'lishlari lozim.

Yosh avlodni tarbiyalash va oqitish xalk ta'limi sistemasining boshlang'ich bo'limi bo'lgan maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maqsadida «Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi» tuzilgan. O'zbekiston xalk ta'limi Vazirligi bu dasturni Respublikamizning o'ziga hos tomonlarini: iqlimi, jug'rofiy, iqtisodiy, madaniy, milliy sharoitlarini hisobga olib, uni qayta ishlab chiqdi. Dastur tug'ilgandan to yetti yoshgacha bo'lgan bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar xajmini o'z ichiga oladi. U maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixologik-fiziologik va o'ziga xos hususiyatlarni hisobga olgan holda ularni har tomonlama kamol toptirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyani pedagog-tarbiyachi amalga oshiradi. U pedagogik jarayonda markaziy o'rinni egallaydi. Shuning uchun tarbiyachi o'z sohasini chukur bilishi, xar xil metodik vositalarni yaxshi egallagan, puxta pedagogik psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda mutaxassislik bo'yicha fanlarni jumladan «Ta'lim tug'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturini, «Uchinchi ming yillikning bolasi tayanch dasturi»ni,

Davlat ta'lim standartlarini, "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi", "Bolalarni maktabga tayyorlash" kabi mutahassislik fanlari va boshqalarni puxta egallagan bo'lishi lozim.

Bolalarni maktabga tayyorlashning asosiy vazifalari esa:

- bolalarni jismoniy, aqliy, ma'naviy jihatdan kamol toptirish ularning sog'lomligini muxofaza qilish;
- bolalarning ijodkorlik mustaqillik erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun, shart-sharoitlar yaratish vazifalarini qo'yadi.

O'sib borayotgan organizm tuzilishining va xarakat qilish qonuniyatlarining asosiy printsiplarini olib boruvchi yosh fiziologiyasi ta'lim-tarbiya berish masalalarini ishlab chiqish uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega. Bu hususiyatlarni bilmay turib, tarbiyalanuvchilarning yoshiga muvofiq tarbiya vositalari va metodlarini, u yoki bu mashg'ulotlarni, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishning tashkiliy shakllarini to'g'ri belgilab bo'lmaydi. Fiziologiyaning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining tipologik xususiyatlari to'g'risidagi xulosalar pedagogika o'quv-tarbiya jarayonini metodikasini ishlab chiqishda, bolalar faoliyatlari uchun yaxshiroq shart-sharoit yaratishga yordam beradi.

Insonning voqelikni belgilovchi hamda uning xulq-atvorini boshqaruvchi psixikaning qonuniyatlari va mexanizmlari to'g'risidagi fan bo'lgan umumiy psixologiya insonning rivojlanishi, tarbiyalanishi va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari jarayonida shakllanadigan xolat va xislatlarni (tafakkur, xotira, tasavvur, his-tuyg'u, iroda va xokazo) tadqiq qiladi.

Yosh psixologiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish imkoniyatlarini, u yoki bu tarbiyaviy ta'sirni ular qanday qabul qilinishini aniqlashda yordam beradi.

Psixologiya shaxsning rivojlanish qonuniyatlari, yosh va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi xulosalarni tarbiyalash va ta'lim berishning ratsionalroq mazmun, metodini asoslash va shaxsning shakllanish jarayonini tug'ri loyixalash imkonini yaratadi.

Pedagogika jamoani tashkil etishning samaraliroq shakllarini, shaxsni jamoada va jamoa orqali tarbiyalash metodlarini ishlab chiqishda sotsial psixologiya bilan qurollanadi.

Maktabgacha yoshdagi bola organizmining ish qobiliyatini oshirish, uning faoliyatini normallashtirish, masalalarini o'rganishda umumiy va sotsial gigiena, mexnat gigienasi, maktab gigienasi, pediatriya va boshqa fanlarning erishgan yutuqlaridagi xulosalardan foydalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish 6-7 yoshdagi bolalarni maktabga to'la- to'kis tayyorlashga, maktabda beriladigan ta'limni mukammal o'zlashtirishga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi.

Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalariga tayangan holda maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini quyidagi metod va usullar bilan tanishtirish talab qilinadi:

- maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalarini yaxshi bilishlari;
- bolalarning maktab ta'limiga umumiy va maxsus tayyorgarligi tushunchalarini bilishlari;
- bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashni aniqlash yo'llari va metod, usullari to'g'risida bilimga ega bo'lishlari lozim.

Yosh avlodni tarbiyalash va oqitish xalk ta'limi sistemasining boshlang'ich bo'limi bo'lgan maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maqsadida «Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi» tuzilgan. O'zbekiston xalk ta'limi Vazirligi bu dasturni Respublikamizning o'ziga hos tomonlarini: iqlimi, jug'rofiy, iqtisodiy, madaniy, milliy sharoitlarini hisobga olib, uni qayta ishlab chiqdi. Dastur tug'ilgandan to yetti yoshgacha bo'lgan bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar xajmini o'z ichiga oladi. U maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixologik-fiziologik va o'ziga xos hususiyatlarni hisobga olgan holda ularni har tomonlama kamol toptirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyani pedagog-tarbiyachi amalga oshiradi. U pedagogik jarayonda markaziy o'rinni egallaydi. Shuning uchun tarbiyachi o'z sohasini chukur bilishi, xar xil metodik vositalarni yaxshi egallagan, puxta pedagogik psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda mutaxassislik bo'yicha fanlarni jumladan «Ta'lim tug'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturini, «Uchinchi ming yillikning bolasi tayanch dasturi»ni, Davlat ta'lim standartlarini, «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi», «Bolalarni maktabga tayyorlash» kabi mutahassislik fanlari va boshqalarni puxta egallagan bo'lishi lozim.

Bolalarni maktabga tayyorlashning asosiy vazifalari esa:

- bolalarni jismoniy, aqliy, ma'naviy jixatdan kamol toptirish ularning sog'lomligini muxofaza qilish;
- bolalarning ijodkorlik mustaqillik erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun, shart-sharoitlar yaratish vazifalarini qo'yadi.

O'sib borayotgan organizm tuzilishining va xarakat qilish qonuniyatlarining asosiy printsiplarini olib boruvchi yosh fiziologiyasi ta'lim-tarbiya berish masalalarini ishlab chiqish uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega. Bu hususiyatlarni bilmay turib, tarbiyalanuvchilarning yoshiga muvofiq tarbiya vositalari va metodlarini, u yoki bu mashg'ulotlarni, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishning tashkiliy shakllarini to'g'ri belgilab bo'lmaydi. Fiziologiyaning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining tipologik xususiyatlari to'g'risidagi xulosalar pedagogika o'quv-tarbiya

jarayonini metodikasini ishlab chiqishda, bolalar faoliyatlari uchun yaxshiroq shart-sharoit yaratishga yordam beradi.

Insonning voqelikni belgilovchi hamda uning xulq-atvorini boshqaruvchi psixikaning qonuniyatlari va mexanizmlari to'g'risidagi fan bo'lgan umumiy psixologiya insonning rivojlanishi, tarbiyalanishi va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari jarayonida shakllanadigan xolat va xislatlarni (tafakkur, xotira, tasavvur, his-tuyg'u, iroda va xokazo) tadqiq qiladi.

Yosh psixologiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish imkoniyatlarini, u yoki bu tarbiyaviy ta'sirni ular qanday qabul qilinishini aniqlashda yordam beradi.

Psixologiya shaxsning rivojlanish qonuniyatlari, yosh va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi xulosalarni tarbiyalash va ta'lim berishning ratsionalroq mazmun, metodini asoslash va shaxsning shakllanish jarayonini tug'ri loyixalash imkonini yaratadi.

Pedagogika jamoani tashkil etishning samaraliroq shakllarini, shaxsni jamoada va jamoa orqali tarbiyalash metodlarini ishlab chiqishda sotsial psixologiya bilan qurollanadi.

Maktabgacha yoshdagi bola organizmining ish qobiliyatini oshirish, uning faoliyatini normallashtirish, masalalarini o'rganishda umumiy va sotsial gigiena, mexnat gigienasi, maktab gigienasi, pediatriya va boshqa fanlarning erishgan yutuqlaridagi xulosalardan foydalanadi.

Pedagogika tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, jamiyatda yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash hamda ta'limning mohiyati va qonuniyatlarini o'rganadigan fandır.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim to'grisidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalar mustaqil ta'lim berish orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim muassasalarida shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalar uchun bolalar bog'chalarida maktablarda, maxallalarda tashkil etilgan maxsus guruxlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular xaftada 2-3 marta shug'ullanadilar. Ota-onalarga maktab ta'lim shaklini tanlash xuquqi beriladi. 6-7 yoshli bolaning maktab ta'limiga tayyorgarligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanadi.

Bolaning maktabga tayyorgarligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'prik vazifasini o'tashni oila yoki bog'chadagi ta'lim-tarbiya sharoitlaridan maktab ta'limiga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim. Huddi ana shu yerda tarbiyachilarning o'z kasbiga muhabbat bilan yondashishi talab qilinadi.

Inson, uning xar tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ruyobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning

asosiy maqsadi va xarakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim tugrisida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-xunar dasturini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, xuquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqaro-tarbiyachini tarbiyalashni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7ga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida xamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda bo'lajak tarbiyachilarni kasbga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiyani samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- 1 O'z kasbini sevuvchi malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- 2 Maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- 3 Bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jixatdan ta'minlash;
- 4 Zamonaviy ukuv-uslubiy kullannmalar, texnik vositalar, uyinchoklar va uyinlar yaratish xamda ularni ishlab chikarish;
- 5 Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalkning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy kadriyatlar asosida ma'naviy-axlokii jixatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- 6 Maktabgacha ta'lim muassasalarining xar-xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;

Maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish kabi vazifalarni maqsad qilib qo'yadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomda maktabgacha ta'limga alohida urg'u berilib, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining

boshlang'ich turi hisoblanadi, hamda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», talablari asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim, bola 6-7 yoshga yetguncha oilada, hamda davlat va nodavlat (davlatga karashli bo'lmagan) maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilanadi:

- bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jixatdan tarbiyalash;

- bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik xislarini shakllantirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishdagi ta'lim jarayoniga tayyorlash;

- bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish.

- bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash kabilarni o'z oldiga maqsad qilib belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining yasli va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar guruhlariga bir hil yoshdagi, shuningdek turli yoshdagi bolalar qabul qilinishi mumkin.

Guruhlardagi bolalar soni quyidagicha belgilanadi:

1. 1 yoshdan 2 yoshgacha – 10 ta.

2. yoshdan 3 yoshgacha – 15 ta.

3. yoshdan 6-7 yoshgacha – 20 ta.

4. turli yoshdagi guruxlarda 15 ta.

Maktabgacha ta'lim muassasalari hududlarining demografik, ijtimoiy-iktisodiy va boshqa hususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, Maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkl etish va tugatish qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari ularning yo'nalishlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1 Bolalar yaslisi, bolalar bog'chasi, bolalar yasli bog'chasi, xonadon bolalar bog'chasi (ham mustaqil muassasa sifatida, ham filial sifatida);

2 Bog'cha maktab muassasasi;

3 Tarbiyalanuvchilarning bir yoki bir necha ustuvor yo'nalishlarda rivojlantiradigan (til o'rganish, badiiy estetik, sport va boshqa yo'nalishlar bo'yicha) maktabgacha ta'lim muassasasi;

4 Tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishni ustuvor ravishda amalga oshiruvchi maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi;

5 Sanitariya-gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlari va muolajalari ustuvor ravishda amalga oshiriladigan sog'lomlashtiruvchi bolalar bog'chasi;

6 Aralash turdagi maktabgacha ta'lim muassasasi;

Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagogik kadrlarning o'quv pedagogik vazifasi MT turiga davlat talablaridan kelib chiqqan holda xalq ta'limi Vazirligi tomonidan belgilanadi. Ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni, mutaxassislar tomonidan tavsiya etilgan yangi dasturlar, metodik qo'llanmalar, didaktik materiallarni joriy etish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Pedagogik kadrlarning o'zaro munosabatlari xamkorlik, demokratiya, xurmat, shaxsning o'z qadr-qimmatini bilishini e'tirof pedagogikasi asosida ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha tarbiya kontseptsiyasida ham belgilangan bosh maqsad va vazifalar maktabgacha ta'lim muassasalari uchun yozilgan yangi dasturlar mazmunini amalga oshirishga qadar aniqlana boradi. Maktabgacha ta'lim muassasidagi bolaning o'sishidagi psixologik va etnopsixologik xususiyatlarga asoslanib, ta'lim-tarbiya tizimida odob, estetika, musiqiy-badiiy, jismoniy tarbiyani birinchi o'ringa chiqarish, grammatikani bu qadar majburiy o'rgatmaslik lozim bo'ladi. Shunday yo'l bilan maqsad asosida vazifa va usullar belgilanadi va rivojlantiriladi. Bu vazifalar esa bo'lajak tarbiyachilarni kasbga muxabbat ruhida tarbiyalashni talab qiladi.

Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik hislari, milliy gurur, mustaqillik g'oyasi hamda o'z hududi, o'lkasi, xalkiga mehr va sadoqatni bolani yoshiga mos ravishda shakllantirish maktabgacha ta'limda ma'naviy-madaniy ishlarning asosini tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning odob axloqli bo'lishi va mehnatga muhabbat qo'yishga katta e'tibor beriladi. Bolalar ilk yoshdan boshlab uyda, ko'chada, bog'chada, mehmonda o'zini tutish qoidalari, muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, yechinish, saranjom-sarishta yurish, odobli, mehnatsevar bo'lish, boshqalar mehnatini qadrlash kabi odatlarga o'rgatiladi. Ana shu odatlar bolani odob-axloqli, mehnatga layoqatli qilib tarbiyalash mazmunining asosini tashkil etadi.

Bolalarning ma'naviy jixatdan barkamol bo'lishida nafosat tarbiyasi asosiy o'rin tutadi.

Tasviriy san'at asarlaridan zavqlana olish, musiqani tinglash va undan shodlana olish qobiliyatlari bolalarda ilk yoshdan rivojlantirib boriladi.

Nafosat tarbiyasi mazmunining asosini chiroyli rasmlarni xis etish, ulardan zavqlana olish, asosiy ranglarni bilish va farqlay olish, rangli qalamlardan foydalana olish, ular yordamida sodda narsalarni kog'ozda tasvirlay olish, plastilin yoki loydan sodda shakldagi narsalarni yasay olish, musiqani tinglab zavqlana olish, ayrim milliy cholg'u asboblarini bilish, musiqa ohangiga mos ravishda raqsga tushish va qo'shiq ayta olish kabilarga o'rgatishni tashkil etadi.

Maktab yoshiga yetgan bolalarning ma'naviy-madaniy jixatdan yetukligiga qo'yiladigan

- Ona Vatan – O'zbekiston haqida qisqacha so'zlab berish;
- 8-dekabr O'zbekiston konstitutsiyasi kuni umumxalk bayrami sifatida nishonlanishini bilish;
- O'zbekiston bayrog'i, gerbi haqida fikr bildira olish;
- O'zbekiston madhiyasini yoddan ayta olish;
- Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik hislari va milliy g'ururni yoshiga mos ravishda shakllanganligi;
- Xalqiga, Vataniga mehr va sadoqat hislarini shakllanganligi;
- Buyuk siymolar haqida ilk tasavvurlarga ega bo'lish;
- Milliy bayramlar haqida qisqacha so'zlab berish;
- O'zidan kattalarga sizlab murojaat qilish;
- Yaxshilik va yomonlikni farqlash;
- Mehnat qilayotgan kattalarga ko'maklashish;
- Tasviriy san'at asarlaridan zavqlana olish;
- «Labbay», «Xo'p bo'ladi», «Xush kelibsiz», «Raxmat», «Salomat bo'ling», «Osh bo'lsin», «Mumkinmi», «Kechirasiz», «Shirin tushlar ko'ring», «Yaxshi borib keling», «Marhamat» kabi so'z va iboralarni o'z o'rnida qo'llay olish;
- Shirin so'zli bo'lish va mexribonlik qila bilish;
- Ovqatlanish qoidalarini bilish va unga rioya qilish;
- Musiqa tinglash va undan zavqlana olish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoniy, aqliy va ma'naviy jixatdan rivojlantirishdan, ularning tug'ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini xisobga olgan holda milliy va umum insoniy qddriyatlar asosida muntazam ta'lim olishga tayyorlashdan iborat.

Bolada kattalar bilan muloqot jarayonida axloqiy xulq atvorning dastlabki tajribalari shakllanadi. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj – muhim ijtimoiy ehtiyoj bo'lib, katta yoshli kishi bu ijtimoiy ehtiyojni qondiruvchi manba xisoblanadi. Axloqiy xis-tuyg'ular va odatlarni tarbiyalash shunday zaruriy asos xisoblanadiki, usiz bola shaxsining murakkabroq xususiyatlarini, ma'naviy kamolotini ta'minlash, mamlakatning ijtimoiy xayot hodisalari haqidagi tasavvurlarini va ularga ijobiy munosabatni shakllantirib bo'lmaydi.

Maktabgacha bolalikning dastlabki bosqichlarida tarkib toptirilgan insonparvarlik asoslari uning ijtimoiy yo'nalganligi bolalarda asta-sekin shaxsning jamoatchilik belgilari: xulq-atvor odatlari, munosabatlari va tasavvurlarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Avvalo bolalar muassasasida jamoaning katta yoshli a'zolari o'rtasida to'g'ri o'zaro munosabat uslubini vujudga keltirish kerak. O'zaro hurmat va gamxo'rlik, ishga muhabbat, mamlakatning siyosiy va mehnat hayotida ishtirok etish – bularning barchasi zarur uslubni ta'minlashi lozim. Pedagogik jamoa va ota-onalar jamoalarining to'g'ri munosabatlari uslubi ham muhim ahamiyatga ega. Bu uslub esa bolalar bog'chasining ota-onalar bilan muntazam ish olib borishi, oila tarbiyasi tajribalarini o'rganish natijasida tarkib topadi.

Kattalar bilan bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yuksak darajasi – muvoffaqiyatli axloqiy tarbiyaning majburiy shartidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning mazmuni va metodlari bu yoshdagi bolalarning xususiyatlariga mos kelishi va u eng yaqin vaqtdagi axloqiy rivojlanish zonasini ko'zda tutishi kerak. Masalan, agar 4 yoshli bolalar o'z tengdoshlariga asosan tarbiyachining maslahati, ko'rsatmasi ta'sirida baholi-qudrat yordam ko'rsatsalar, 5 yoshga to'layotganda bunday yordamni o'z hohishlariga ko'ra ko'rsatishlari lozim.

Oilaga hos bo'lgan muhabbat, o'zaro e'tibor, g'amxo'rlik muhiti bola xis-tuyg'usini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Oilada qaror toptiriladigan ijtimoiy xis-tuygular bolaning kichik yoshdan boshlab tug'ri axloqiy rivojlanishining muhim asosi hisoblanadi.

«Salomatlik va hayrihohlikni tarbiyalashning chinakkam maktabi – bu oiladir; Otaga, onaga, buvaga, buviga, aka-ukalariga, opa-singillariga munosabat insoniylikning sinovi hisoblanadi», - degan allomalarimiz.

Maktabgacha ta'lim muassasa tarbiyachisining muhim vazifasi – otalarga bola shaxsini shakllantirishda ularning alohida rol o'ynashlarini tushuntirishi, zarur pedagogik bilim va ko'nikmalarini egallashlarida ularga yaqindan yordam berishdan iborat. Bolalarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda mahallaning o'rni ham kattadir. Mahalla, avvalo, sog'lom ijtimoiy muhitdir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda maxalla – Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek, - xaqiqiy demokratik darsxonadir.

Maxalla ijtimoiy kelib chiqishi, millati, mijozi turli hil bo'lgan va oilalarni tashkil qilgan odamlardan iborat. Mana shu oilalarning boshlarini biriktirish, ularni ma'naviy va moddiy-jismoniy jihatdan mustahkamlash, yoshlarni tarbiyalash kabi muhim vazifalar ham mahallada amalga oshadi.

Oilalarni bir jamoaga, ijtimoiy guruhga, muassasaga, aynan mahalla birlashtiradi. Ularda ahillik, hamjihatlik, xamkorlik, hamdardlik, xis-tuyg'ularini shakllantiradi, kamol toptiradi.

Xar bir fuqaroning hayotida «SHaxs-oila-mahalla» uchligi katta ahamiyat kasb etadi. Bu sharqona turmush tarzimizning o'ziga xos tizimidir va eng muhimi, insonning jamiyat hayotiga uzviy singib, ijtimoiy munosabatlar ishtirokchisiga aylanishida muhim vositadir.

Insonning oilada shakllangan iymon-e'tiqodi, odobi, oriyati, vijdoni, tafakkuri mahalla muhitida yanada yuksalib xalk manfaatlari, uz aro inoqlik va xamkorlik xis-tuyg'ulari bilan uyg'unlashib, jamiyatda sog'lom munosabatlarning shakllanishiga olib keladi.

Bolalarni xalk og'zaki ijodi bilan tanishtirish ham bolaning ma'naviy komolotini ta'minlaydi. Vatan tuyg'usini bolalarcha ona allasi, bobolar o'giti, oila tarbiyasi bilan singdirishdan iborat. Bolalarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda va ularda ma'naviy komolotni rivojlantirishda asosan to'rtta negizga asoslanish lozim:

- Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- Xalqning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- Vatanparvarlik xis-tuyg'ularini uyg'otish;

Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan bolalar bogchasida tarbiyaviy ishni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'kuv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishni nazarda tutadi. Shunga ko'ra zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotda (A.V.Zaparojets, A.A.Venger, G.M.Lyamina, G.G.Petrogenko, J.V.Taruntaeva va boshqalar) tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsini rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o'zaro bog'langan jixatlarda: «Maktabga o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik» va «Maxsus tayyorgarlik» tarzida ko'rib chiqiladi.

Maktabga umumiy tayyorgarlik maktabgacha ta'lim muassasasining maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maksadga muvofiq ta'lim-tarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivolanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitlariga va o'quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi. Umumiy tayyorgarlik bola maktab ta'limiga o'tish davriga kelib erishadigan psixik rivojlanishning muayyan darajasi bilan ifodalanadi.

Psixologik tayyorgarlik tushunchasi maktab ta'limi nuqtai-nazaridan 1 sinfga borayotgan bola psixik rivojlanishidagi muhim sifat ko'rsatkichlarini muvoffaqiyatli jamlaydi.

Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik bolaning o'qishga intilishi o'quvchi bo'lish ishtiyoqida bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yuqori darajasi bolaning o'quv faoliyati elementlarini egallashi iroda va ijtimoiy rivojlanishning muayyan darajasida namoyon bo'lishga asoslangan tayyorlikni o'z ichiga oladi. Bolani maktabga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sinf jamoasiga olib kirish maktabda o'quv materialini ongni, faol egallash keng doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni qamrab oladi.

Bolani maktabga maxsus ravishda tayyorligi maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorligiga qo'shimchadir u bolada matematika va ona tili kabi o'kuv fanlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga eng oddiy matematik tasavvurlarni tarkib toptirish, nutqni o'stirish hamda savodni egallashga tayyorlanish yuzasidan o'tkaziladigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi. Maktabga qatnaydigan bola yangi turmush tarziga kishilar bilan o'zaro munosabatning yangi sistemasiga, faol aqliy faoliyatga tayyorlangan bo'lishi darkor. U yangi jiddiy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayyan darajaga erishgan bo'lishi kerak.

Bolaning maktabda (o'qishga axloqiy-irodaviy tayyorgarlik) umumiy tayyorligi mazmunida bir necha o'zaro bog'langan jixatlar mavjud bo'lib, ulardan muhimlari ma'naviy, irodaviy, aqliy, jismoniy tayyorgarlikdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy-irodaviy tayyorlashga qo'yiladigan talablar.

Axloqiy-irodaviy tayyorlik bolaning maktabgacha bolalik ohiriga kelib axloqiy xatti-harakat, iroda, axloqiy xissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai-nazarni faol egallashiga hamda o'zining o'qituvchi va sinfdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini axloqiy asosda ko'rishga imkon beradigan darajaga erishishida ifodalanadi. Axloqiy irodaviy tayyorlik katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo'ladi. Bu munosabatda bolaning maktabgacha tarbiya yoshi davomida rivojlanadigan o'z xulq atvorini boshqarish qobiliyati yoki tarbiyachi tomonidan berilgan topshiriqni ongli bajarish, daf'atan asabiylashib ketishiga erk bermaslik, qo'yilgan maqsadga erishishda kat'iyatni namoyon qilish, kerakli ishni o'ziga tortadigan, ammo maqsaddan chalg'itadiganiga qarshi o'laroq bajarish ko'nikmasi va shu kabilar e'tiborga loyiqdir. Bo'lajak o'qituvchi xulq-atvoridagi ixtiyoriylikning rivojlanish asosini maktabgacha tarbiya yoshi oxiriga kelib tarkib topadigan sabablar, o'zaro bo'yso'nuvchilari tashkil qiladi. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning tarkib topishida,

shuningdek katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsiy xulq atvoridagi mustaqillik uyushganlik va intizomlilik kabi xususiyatlar ahamiyatlidir.

Mustaqillik bilan uzviy bog'langan xulq-atvor qoidalarini bajarish, yangi sharoitlarda xarakterning to'g'ri odatiy usullaridan foydalanish, yordam berishga tayyorlik qobiliyatidir. Mustaqillik va xulq-atvordagi uyushganlik va intizomlilik bilan xulq-atvordagi maqsadga yo'nalganlikda, o'z faoliyatini maktabgacha ta'lim muassasasida qabul qilingan qoidalarga muvofiq ongli tashkil eta bilishda, faoliyat natijasiga erisha bilish va uni nazorat qilish, o'z xulq-atvorini boshqa bolalarniki bilan muvofiqlashtirish, o'z xatti-xarakatlari uchun shaxsiy ma'suliyatni xis qilishda o'z ifodasini topadi.

Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning boshqa muhim tarkibiy qismi bolaning katta yoshlilar va tengqurlari bilan o'zaro munosabatlarini qoidalarga muvofiq tashkil eta bilishdir. Tajribaning ko'rsatishicha maktabdagi o'qish sharoitlariga moslashish oldingi yillarda bolalarda «jamoatchilik» sifatlari: do'stlarga nisbatan xayrihoh, hurmat bilan munosabatda bo'lish, tashkilotchilik ko'nikmalari, xushmuomalalik, g'amxo'rlik bildirish, o'zaro yordamga xozirlikning qanchalik muvoffaqiyatli shakllantirilganligiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Bola xulq-atvorida jamoachilik munosabatlarining mavjudligi uni maktabga axloqiy tayyorgarligining ko'rsatkichi bo'la oladi va yangi jamoada tengqurlari bilan muomalada ko'tarinki ijobiy ruxni yuzaga keltiradi.

Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlik, shuningdek, axloqiy xissiyot va bola ongi rivojining muayyan darajasi bilan ham ifodalanadi. Bu o'rinda eng ibratlisi bolalarning axloqiy xulq atvorining ijtimoiy ahamiyatini tushunishi ularda o'z hatti xarakterlarini mustaqil baholash qobiliyatini rivojlantirish, ma'suliyat, xaqqo'ylik, insoniylik va fuqarolik xissiyotlari elementlarini shakllantiradi. Axloqiy-irodaviy tayyorlik tarkibiga maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning mehnatga munosabatini ifodalovchi sifatlar majmui ham kiradi. Bu mehnat qilish ishtiyoqi, atrofdegilar mehnatiga hurmat, zarur mehnat malakalarini egallash kabilar kiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar.

Maktabga aqliy tayyorlikning muhim tarkibiy qismi maktabga o'qishga kirayotgan bolada atrof, dunyo haqida yetarlicha keng bilish boyligining mavjud bo'lishidir. Bilimlarning bu fondi o'qituvchi o'z ishini tashkil etishiga tayanadigan zarur asos hisoblanadi.

Bolani maktabga aqliy tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir. Bilimlar sifatining ko'rsatkichi birinchi navbatda ularni bolalar tomonidan ongli egallanganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqalashtirilganligi; oddiy tushunchlar mazmuni va xajmining to'liqligi; o'zlariga tushunarli o'quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustaqil qo'llay olish

qobiliyatlari; muntazamlilik, ya'ni maktabgacha tarbiya yoshidagilarning narsa va hodisalar o'rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatidir.

Maktabga aqliy tayyorlikni shakllantirishda bo'lajak o'qituvchini tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhim ahamiyatga ega. Bolalar bog'chasining bolalarni aqliy tarbiyalashga oid olib borayotgan muntazam, maksadga muvofiq ish sharoitlarida bolalarda (faoliyat) tafakkur faoliyatida narsalarning ko'p tomonlama taxlil qilish qobiliyati, ijtimoiy tarkib topgan sensor etalonlardan fan xamda xodisalar xususiyat va sifatlarini tadqiq qilishda foydalana bilish narsa va hodisalardagi asosiy aloqa, bog'liqlik, belgilarini aniqlash asosida oddiy umumlashtirishlar qilish qobiliyati, o'xshashlik va farqlanuvchi belgilarni izchil ajratish asosida narsalarni qiyoslashni amalga oshirish ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Bo'lajak o'qituvchilarda aqliy faoliyatning elementar mustaqilligi: o'z amaliy faoliyatni mustaqil rejalashtirish va uni reja asosida amalga oshirish ko'nikmasi, oddiy bilish vazifasini qo'yish va uni hal etish ko'nikmasi va shu kabilar rivojlantiriladi.

Maktabda aqliy tayyorlik, shuningdek bolalar tomonidan o'quv faoliyati elementlarini egallab olinishini ham o'z ichiga oladi. Bolalar muntazam ta'lim sharoitlarida maktabgacha bolalik oxiriga kelib, o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o'quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko'rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni kattalar tomonidan ko'rsatilgan usullaridan foydalanib bajarib bir natijaga erishish, o'z faoliyati, xulk-atvori, topshiriqlarni bajarish sifati o'stidan nazorat qilish ko'nikmasini, o'zining va boshqa bolalarning ishlariga tanqidiy baho berish qobiliyatini, egallab olishlari kerak.

Nutqni qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo'lishi bolani maktabga aqliy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tovushni aniq talaffuz qilish, lug'atning boyligi, o'z fikrini mantiqiy grammatik to'g'ri bayon qila bilish, madaniy nutq muomalasi-bularning barchasi maktabda muvaffaqiyatli o'qishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Aqliy tayyorgarlik tarkibiga shuningdek, savodning boshlang'ich asoslari oddiy matematik tasavvurlar, ona tili yetarlicha keng bilim, ko'nikma va malakalar doirasi ham kiradi. Shunday qilib, maktabdagi o'qishga aqliy tayyorlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning o'zaro bog'langan tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bilish faoliyati, bilish qiziqishlari, bola tafakkuri usullari, atrof dunyo haqidagi anglangan sistemalashtirilgan tasavvurlar hamda elementlar tasavvurlar, nutq va elementar o'quv faoliyati umumiy darajasining birligi bolalarda maktabdagi o'quv materialini egallashga aqliy tayyorlikni vujudga keltiradi.

Maktabga chiqish munosabati bilan bola turmush tarzining qayta qurilishi, kun tartibining o'zgarishi, jiddiy o'quv mehnati, darslarning davomiyligi undan sezilarli jismoniy zo'r berishni talab qiladi. Maktabga jismoniy tayyorlik ko'pgina tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bu birinchi

navbatda bola salomatligining yaxshi bulishi, organizmning chiniqqanligi, ma'lum darajada chidamliligi va ish qobiliyati, kasalliklarga qarshilik ko'rsata olishidir. Bolalarni maktabga tayyorlashda barmoq mayda muskullarining rivojlanishi alohida urin egallaydiki, bu yozuvni muvaffaqiyatli egallashning zaruriy sharti.

Maktabga jismoniy tayyorlik shuningdek bola tomonidan madaniy gigienik malakalarni egallanishini, ularda shaxsiy gigiena koidalari rioya kilish odatini tarbiyalashni nazarda tutadi.

Jismoniy tayyorlik bola maktabga yetuklikni shakllantirishning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktabga yetuklikni aniqlashda bola sog'ligining xolati va organizmning biologik yetukligini baholash (antropometrik ko'rsatkichlar suyak, mushak, nafas olish va yurak-tomir sistemasining) rivojlanganligini nazarda tutuvchi ko'p omilli taxlildan, maktabga funktsional tayyorlikni «Maktabga yetuklik»ni asosiy ko'rsatkichi en vvalo bir qator fiziologik funktsiyalarining rivojlanish darajasini baholashdan foydalaniladi. Bularga: partada anchagina uzoq muddat o'tirish uchun zarur bo'ladigan tormizlanish qobiliyatining rivojlanganligi; xarakatlarni yaxshi boshqarish, jumladan yozish va rasm solishga aloqador grafik vazifalarni bajarishda zarur bo'ladigan barmoqlarning mayda hrakatlari; ijobiy va tormozlanishiga xos shartli aloqalarni nisbatan tez xosil qilish hamda mustahkamlash, shuningdek ikkinchi signal sistemaning yetarlicha rivojlanganligi ta'liklidir.

Bolalarni «Maktabga yetukligi»ni aniqlash maqsadlarida gigienistlar Kern-Irasekning (CHexiya) testlari, sovet tadkikotchilari (M.M.Antropova, M.M.Koltsova, T.S.Sorokina va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan metodikadan foydalanadilar. Bolalarni tekshirish ularni maktabda olti yoshdan o'qishlari mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

Bolalarni maktabga jismoniy tayyorliklarini tekshirish natijasi ko'pchilik bolalarda uning asosiy ko'rsatkichlari norma atrofida ekanligini va hatto undan ilgarilashini ko'rsatdi. Kun tartibi, chiniqtiruvchi muolajalar, muntazam jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, xilma-xil xarakatli o'yinlar va jismoniy mashqlar faol xarakat rejimi bolalarni maktabda o'qishiga jismoniy tayyorligini ta'minlashning zaruriy shartlari hisoblanadi.

Bolalarni maktabga tayyorlashdan maqsad bola shaxsini bolalarni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk maktabga o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat. Bu esa maktabgacha ta'lim tarbiyachilari oldiga juda katta mas'uliyatni yuklaydi. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishda bo'lajak tarbiyachilarni kasbga muhabbat ruhida tarbiyalash talab qilinadi. Zero, o'z kasbga muhabbat bir umrlik samarali mehnat faoliyatining garovidir.

Bolani birinchi sinfda o'qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning sababi kattalarning bola bilan bo'ladigan muloqotlari shakli u yoki bu vaziyatga bog'liq bo'lmagan holda, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday muloqot bolaning kattalar e'tiboriga va hamdardligiga bo'lgan ehtiyoj va ehtiyojlarni kattalar tomonidan qondirilishi bilan xarakterlanadi. Muloqotning bu shakliga erishgan bolalar uchun kattalarga e'tibor, ular murojatini tinglash va tushunishga intilish va kattalar tomonidan ham ularga nisbatan shunday e'tibor ko'rsatilishiga bo'lgan ishonch hosdir. Bunday bolalar kattalarning turli vaziyatlarda (ko'chada, uyda, mexmonda, ishxonada) o'zlarini qanday tutishlarini farqlay oladilar. Kattalarning bunday xulqni anglash evaziga bolalar ham kattalarga, o'qituvchilarga, shu vaziyatga mos ravishda munosabatlarni namoyon qiladi. Agar bolada kattalarga nisbatan bunday munosabatlar shakllanmagan bo'lsa, unga mos ravishda kattalarga nisbatan ham tegishli munosabat yuzaga kelmaydi, bu esa albatta bola bilan olib boriladigan ta'lim jarayonini murakkablashtiradi.

Ota-onalar xar bir bola ruhiy rivojlanishida o'ziga hos xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon bo'lishini yodda tutishlari lozim. Ba'zi bolalar endigina birinchi so'zlarni o'zlashtirganlarida ularning tengqurlari allaqachon ma'lum bir iboralar bilan gaplasha oladigan bo'ladilar.

Bolalar o'zlarini qizikuvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir-birlaridan ajralib turadilar. Ba'zi bolalar ko'p savol beradilar va harakatchan bo'ladilar, ba'zi bolalarni esa hech narsa qiziktirmaydi. Ota-onalar bolalaridagi o'ziga hosliklarni qanchalik chuqur bilsalar, ularga o'rgatishni muvoffaqiyatli tashkil qila oladilar.

Odatda, sog'lom bola kasalmand va zaif bolaga nisbatan maktabgacha ta'lim muassasalari rejimiga o'zida jo'sh urib turgan g'ayratlarini tiyib jim o'tirishga tezroq ko'nikadi. Sog'lom qilib o'stirish esa tarbiyachi va ota-onalarga bog'liq. Xar bir bola aniq kun tartibiga ongli ravishda rioya qilishiga bog'liq.

Bolani maktab rejimiga tayyorlashda, uning sog'ligini mustahkamlashda ertalab ma'lum vaqtda o'rindan turish, ovqatlanish va uyquga yotishga aniq rioya qilinishi kerak.

Har bir oila mehnat faoliyatining xarakteri, maishiy sharoiti, bolalarning soni va shu kabilarga o'z yashash tartibini o'rnatadi. Biroq siz bir narsani, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolaning nonushtasi va tushligi o'rtasidagi oraliq 4 soatdan oshmasligini, tushlik va kechki ovqat o'rtasidagi oraliq – bir oz kattaroq (6-7 soat), buning orasida yengil ovqatlanish kechki choy bo'lishi kerakligini unutmasligingiz kerak.

Bolaning bir sutkadagi uyquasi taxminan 11 soatni tashkil qilishi kerak. Bola tushlikdan so'ng 1-1,5 soat dam olishga odatlansin. Kechqurun u doimo bir vaqtda, ya'ni 9 dan kechikmay uxlagani yotsin. Bola miriqib uxlasin desangiz, quyidagi qoidalarga rioya qiling:

- Bola uxlaydigan xonani yaxshilab shamollating;
- Bolani uxlashga yotishdan oldin tishini tozalashga, yuz-qo'li, bo'yni, oyog'ini yuvishga odatlantiring;
- Bolaga o'rinda nonushtaga aslo yo'l qo'ymang;
- Bolaning normal rivojlanishi uchun u toza havoda ko'p harakat qilishi kerak. Tengdoshlari bilan chopsin, sakrasin, narsalarga tirmashib chiqsin;
- Bola ochiq havoda qish oylarida 4 soatdan kam bo'lmasin, yozda esa deyarli butun kunini ochiq havoda o'tkazsin;
- Bolaga uzzu kun tinim bilmay lakillab yurishga yo'l qo'yib bo'lmaydi, bunday ortikcha uynokilikdan bola maktabning talabchan intizomiga ko'nikishi qiyin bo'ladi. Xarakatli o'yinlarning tinch mashg'ulotlar bilan almashinib turishini kuzatib boring;
- Bolaning kundalik rejimga amal qilishi uchun asosan, qat'iy nazorat lozim. Bola kundalik rejimni bajarish majburiylikiga va hech qanday gap, iltimoslar, ma'lum vaqtda ovqatlanmaslik hamda o'ynamaslikka sabab bo'la olmasligiga ko'nikishi kerak. Shu bilan birga siz rejimning zarurligi va uning foydasini doimo tushuntirib borishingiz kerak:
- Ertalabki badantarbiya mashqlarini yaxshi bajarding, endi kun bo'yi tetik yurasan;
- Barakalla, gullarni tozalab yaxshi qilibsang. Menga ancha yordaming tegdi;
- O'z vaqtida ovqatlansang, tezo'usasanhxamda, kasalga chalinmaysang;
va shu kabilar.

Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, ya'ni oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

O'simlik va hayvonlar bilan tanishish bo'yicha sistemali mashg'ulotlar olib borilgandan keyin bolalar o'simlik, yosh hayvonlar tug'risidagi ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladilar. So'ngra bolalardagi aqliy ko'nikma, malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan mashg'ulotlarni o'tkazishni rejalashtirish mumkin. Bular qo'yidagilar: «Sen ta'rifla, men topaman».

Didaktik vazifa - Kattalarning savollariga narsaning xarakterli belgisini ajratib va nomini aytib javob berish.

O'yin harakati – Kattalarga topishmoqni aytish.

O'yin qoidasi – Ta'riflanayotgan narsani nomini aytish mumkin emas.

Tarbiyachining savollariga aniq va to'g'ri javob berish.

Jihozlash – Sabzavot va mevalarni stol ustiga qo'yiladi. Tarbiyachi stulini o'simliklar ko'rinmaydigan qilib qo'yiladi.

O'yinning borishi – Tarbiyachi bolalarga stol ustidagi sabzavotlardan bittasini tanlang. Men sizdan uning qandayligini so'rayman. Siz javob berasiz. Faqat uning nomini aytmang. Sizlarning javoblaringizdan men uni topishga harakat qilaman. Keyin tartib bilan tarbiyachi savol beradi: «Shakli qanday?, hamma tomoni shardek dumaloqmi?, Chuqurchasi bormi?, Rangi qanday?» va boshqa.

Bolalar savollarga to'la javob berishadi. Bolalar narsaning harakterli belgilari haqida gapirib berganlaridan keyin tarbiyachi topishmoqni topadi.

Mashg'ulotda, o'yinda, tabiat burchagida va maydonchadagi mexnatda, ekskursiya va sayr vaqtida tarbiyachi bolalarga atrofdagi olamning turli-tumanligini, chiroyini ko'rsatadi, o'simlikning turli xususiyatlari, sifatlari bilan tanishtiradi, o'simlik va hayvonot olami haqida elementar tushunchani shakllantiradi. Tarbiyachining hikoyasidan faolroq o'zlashtirib olishga bolalarning jozibali munosabati imkon beradi. Mashg'ulotlarda, didaktik o'yinlarda quyilgan vazifani hal etishda bola buyum va hodisalarning ayrim xususiyatlarini ajratishga, solishtirishga, umumiy xususiyatlarga, belgilariga qarab guruhlarga ajratishga, klassifikatsiya etishga o'rganadilar. Bolalar fikr yuritishga, xulosalar chiqarishga o'rganadi, bolalar dikkati, xotirasi va ixtiyoriy idroki rivojlanadi. Mashg'ulotni, o'yin vazifasini hal etishda bola o'zining xatti-harakatini tushuntiradi. Bu esa nutqining o'sishiga yordam beradi. Mashg'ulotlar, didaktik o'yinlar davomida turli maktabgacha yoshdagi bolalar ko'p marotaba takrorlash orqali bolalar bog'chasining ta'lim-tarbiya dasturiga hos bilimlar majmuini o'zlashtiradilar. Tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlarni tanlashtirishda tarbiyachi o'yinning mazmuni atrof muhitdagi tabiatdagi o'zgarishlarga mosligini unutmasligi lozim.

Masalan: «Urug sotib olish» uyini baxorda, «Hosil yig'ishtirish» esa yoz yoki kuzda o'tkazilishi kerak. Tarbiyachining o'zi ham mashg'ulot, o'yinning turlicha variantlarini o'ylashi mumkin: o'yinga, mashg'ulotga qushimcha vazifa, yangi rol, bolalarning atrofdagi tabiat haqidagi bilimlarini boyitishga va boshqalar. Ba'zi bir xil didaktik o'yinni turli variantda, turli yoshdagi bolalar uchun tavsiya etiladi. O'yinlar o'simliklar, hayvonlar yoki boshqa predmetlarning soni oshishi, turlicha qoida va o'yin harakatlarining oshishi hisobiga murakkablashadi. Masalan: paypaslab bilish uchun sabzi, bodring, olma va boshqalar olish mumkin, keyinchalik shakli o'xshash bo'lgan meva va sabzavotlarni kiritish mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga barg, gullar bilan o‘ynash ko‘pincha guruh xonasini, ovqat stolini bezash, guldasta, barglarni kattalarga, kichik bolalarga sovg‘a qilishga xohishlari bilan bog‘lanadi. Bunday o‘yinlarni, mashg‘ulotlarni o‘tkazishda bolalarni o‘simliklarga nisbatan ehtiyotkorlik, gullarni bekordan-bekorga uzmaslikka o‘rgatish lozim. Agar bola olma yoki boshqa predmetlarni shakliga diqqatini qaratgan bo‘lsa, unga olmani dumalatib ko‘rish, koptokdek silab ko‘rish, uning silliqligini aniqlashni taklif etish lozim. Bolalarda rang, shakl, kattalik tushunchalarini ishlatishga o‘rgatish lozim.

Hilma-hil tabiat hodisasi olamida bolalarning bevosita kuzatishlari uchun eng tushunarligi o‘simlik va uy hayvonlaridir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o‘simlik va hayvonlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan muhabbat tarbiyalanadi, hayvonlarni parvarishlashga, o‘simliklarni o‘stirishga nisbatan istaklari tarbiyalanadi.

1.2 O‘rta Osiyo mutaffakirlarning ilmiy talimotida ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari

Respublikamizda qabul qilingan “Talim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yuksak manaviy axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakaviy kadrlarni tayyorlashning milliy tizimini yaratishdek ulkan vazifani jamiyatimiz oldiga dolzarb qilib qo‘ydi Respublika Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “milliy istiqlol: assosiy tushuncha va tamoyillar” konsepsiyasida “Kelajagi buyuk davlatni sog‘lom mafkurali, manaviy barkamolavlod barpo eta olishini nazarda tutib, komil inson tarbiyalash borasidagi ishlarni istiqbolda ham davlat siyosati darajasida kuchaytirib borish va umum xalq harakatiga aylantirish” muhimligi ko‘rsatilgan . Shu o‘rinda etirof etish joyizki , shaxs manaviyatini rivojlantirish barkamol insonni voyada yetkazishda ularni manaviy-axloqiy shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki manaviy-axloqiy tarbiyalangan shaxs xalqimizning madaniyatini yuksaltirishda, milliy ongni uyg‘otishda , mamlakat ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shib, millat va ona vatan oldidagi burch, masuliyatni teranroq anglashga harakat qiladi. Yani, ma‘naviy ahloqiy yetuklik shaxsdagi bunyodkorlik g‘oyalarini yuqori darajada bo‘lishini ta‘minlaydigan va komillikka yetaklaydigan aniq maqsaddir. Shini alohida takidlash kerakki, yoshlarni ma‘naviy – ahloqiy shakllantirish har bir davrda jamiyatning asosiy vazifasi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Chunki ahloqiy pok, shaxsi go‘zal bo‘lgan xalqning ma‘naviyati ham yuksak hisoblanadi. O‘zbek xalqi azaldan o‘zining ma‘naviyati madaniyati bilan jahonga mashhurdir.

Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy va boshqa O'rta osiyo mutafakkirlari xalqimizning madaniyatini rivojlantirishga, ma'naviyatini boyitishga ulkan hissa qo'shganlar. Ular yaratgan asarlarda insonning oriflik, fozillik, komillik darajasi va uni tarbiyalashning maqsad va vazifalari aniq ifodalab berilgan shuning uchun ham buyuk ajdodlarimizning bebaho asarlari ma'naviyatimizning asoslari va o'quvchilari, ma'naviy – ahloqiy tarbiyalashning negizi hisoblanadi.

Ushbu allomalarimizning fikricha inson qo'yidagi fazilatlarga ega bo'lsagina: fozillik, komillik pog'onasiga qadam qo'yadi: Barinchidan, bilimdan ortirilgan hislat, ikkinchidan, ichki va tashqi ko'rinishdan topilgan haqiqat, uchinchidan, aql tufayli hosil qilingan xulq – atvor, to'rtinchidan, mol-u mulkdan ham ziyoda bo'lgan salomatlik.

Bunday fazilatlar faqatgina ma'naviy – ahloqiy shakllangan kishidagina bo'lishi mumkin. Zero, ma'naviy ahloqiy tarbiya zamirida aql – farosat, ilm-u odob, hushfellik, poklik, halollik, vijdoniylik, mehnatga muhabbat, Vatanga sadoqat kabi insoniy fazilatlar yotadi.

Fozillik asosan Farobiyning pedagogic ta'limotida nazariy – amaliy jihatdan to'liq ifodasini topgan. Ayniqsa yuqorida tasis etilgan hususiyatlarni ulug' alloma Abu Nasr Farobiy o'zining "Ilmlarning kelib chiqishi haqida", "Aql manolari haqida risola", "Ilmlarning tasnifi haqida", "Kitobi ahloq", "Fozil odamlar shahri", "Musiqha haqida kata kitob" kabi bir qancha asarlarida alohida qayd qilib o'tadi.

Farobiy fozil inson tarbiyasining maqsadini undagi yoqimiylik, go'zal hatti harakatlar namoyon qiliishi eng oldin o'z tabiatini, o'z hissiy ruhiy, ruhiyatining hususiyatlarini haqiqatga yo'naltirgan bo'lishidadir deb belgilaydi. Shunga ko'ra Farobiy inson kamoloti, baxti, ta'lim – tarbiysi, ma'naviy – ahloqiy qiyofasi e'tiqodi, Vatanga sadoqati, ota – onaga mehri kabi hislatlarni pedagogik ta'sirini o'git, nasihat kabi usullarida. Ma'lumki ma'naviy – ahloqiy tarbiyaning muhim hususiyatlaridan biri kasb hunarga o'rgatishdir. Shunga asosan Farobiy kasb – hunarni, hunar insonni baxtga eltuvchi, fozillika yetaklovchi deb biladi. Insondagi barcha ezgu fazilatlar va hususiyatlar yani ahloq – odob, kasb – hunar, odat iroda bilan yani tarbiya va ta'lim yo'li bilan hosil qilinadi.

Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir. Yosh avlod ongiga o'zbek xalqining boy ma'naviy va aqliy boyliklari, umum insoniy qadriyatlar, milliy istiqloq g'oyalari negizida shaxsda ijobiy, ma'naviy – ahloqiy qarashlarini shakllantirish Vatanimizning buyuk kelajagiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash mustaqillik g'pyalarini qaror toptirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. O'tmish durdonalari mutafakkirlarning ilg'or ta'limoti, ma'naviy – ahloqiy tarbiya manbai bo'lishi bilan bir qatorda bola

shaxsining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Beruniyning inson haqidagi g'oyalarini o'rganish baxt saodat yo'lida olib brogan ishlarini o'quvchilarga tushuntirish, uning hikmatlarini o'rgatish, mustaqillikning shakllantirishning asosiy omilidir. Beruniy ilm dargohiga kirgan kishining qalbi pok bo'lishini, yomon illatdan soqit bo'lishini ta'kidlaydi. Abu Rayhon Beruniy "Javohiro't" kitobida odmgarchilik masalasida quyidagicha ta'riflaydi: "Odamgarchilik yani muruvvat kishining o'z urug' aymog'I va boshqalarga yaxshiligi bilan belgilanadi. Muruvvatli mard kishi o'zidan va o'ziniki ekanligiga hech kim tortishib o'tirmaydiagn narsadan boshqasiga egalik qilmaydi." Bizning fikrimizcha bo'lajak mutahasislar sharq allomalarining ta'lim – tarbiya haqidagi qarashlarini chuqur o'rgansalar, ularning g'oyalarini dastur amal qilsalar o'ylagan maqsadlariga erishadilar.

Tarbiyalanuvchilarni ma'naviyatini shakllantirish, ularni milliy va umum insoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda ahloqiy madaniyatini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb mavzusidir lekin, bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligi tufayli milliy tarbiya jarayonida MTMLarda bolalarni ma'naviy – ahloqiy tarbiyalash muammolarini yechish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Mulki borliq ichra bir mahal,

Mo'jazgina olam yaralgan,

Bermoq uchun dunyoga sayqal,

Olam aro odam yaralgan.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, xulq, axloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Shu o'rinda bu kategoriyalarning moxiyati us tida to'xtalib o'tish joizdir.

Odob — har bir insonning o'zga bir inson bilan yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish - turishida o'zini tuta bilishidir.

Xulq — odobning inson qalbidagi ichki tuyi ko'nikmaga aylangan ko'rinishi.

Axloq — jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan maqullangan xulq —odob normalari majmui.

Madaniyat — "jamiyatning va unda yashovchi fuharolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi".

Ma'naviyat — inson ongidagi moddiy va ma'naviy ko'nikmalarini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Insonning mushohada qilishi aqlni peshlaydi. Aql ongni sayqallaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, inson ma'naviyatli bo'lishi uchun juda ko'p ilm olishi va insoniylik fazilatlarini, sifatlarini o'zida ko'nikmaga aylantirishi lozim. Buning uchun u o'z ustida tinmay izlanishi va hayotni kuzatib, undan saboq chiqarib borishi lozim.

Hayotni kuzatar ekanmiz, har bir insonning jismoniy, intellektual va ma'naviy jihatdan yagona bo'lishini, unga har tomonlama aynan bo'lgan ikkinchi bir insonning yo'qligini va tarixda ham bo'lmaganligini ko'ramiz, tabiatning hassosligiga, betakrorligiga tasannolar o'qiymiz. Insonlar bir-birlariga aynan bo'lmasalarda, ular bir-birlarini tushunib, o'zaro hamkorlikda hamjihatlik bilan bunyodkorlik, yaratuvchilik bilan shug'ullanmoqdalar, ezgulik urug'ini sochmoqdalar, va ularning hosilidan bahramand bo'lib yashamoqdalar. Bunday insonlar xam aqliy, ham axloqiy bilimlarni puxta egallagan, har narsaga qodir, yuzidan nur balqiydigan, tilidan bol tomadigan, xushxulq, xushfe'l insonlardir. Ular jamiyatning', xalqning sevimli farzandlaridir. Shu bois ularga havas qilsa, taqlid qilsa, ulardan namuna olsa arziydi.

Abdulla Avloniy o'zining "**Turkiy guliston yoxud axloq**" asarida ana shunday insonlar haqida bunday deydi: "**Yaxshi fazilatlarini o'ziga kasb qilib olgan insonlar yaxshi insonlar deyilur**". Avloniy yaxshi insonlar deganda odamlarga yaxshilik kila oladigan, kamtar, saxiy, mehnatkash, mehr — shafqatli, bilimdon, o'zгалar uchun qayg'uradigan, mard insonlarni ko'zda tutsa, "Yomon insonlar deb, yomonlik fazilatleri yaxshi fazilatlaridan ustun turadigan insonlarga aytiladi", deydi. Muallif yomon insonlar deganda xasis, baxil, birovlarning yutug'ini ko'ra olmaydigan hasadgo'y, faqat o'zim deydigan xudbin kishilarni nazarda tutadi. Avloniy kishilarni o'zida yaxshi fazilatlarini to'plashga, nazariga tushishga, yaxshilikka intiluvchan, o'zini tarbiyalab boruvchi insonlar bo'lishga undaydi.

Moziyga bir nazar tashlaylik. Erkaklarimizdan ularga xos mardlik, jasurlik, g'urur kabi hislatlar meros bo'lib kela — yotgan bo'lsa, momolarimizdan or — nomus, iffatlilik, nazokatlilik, sharm hayo, shirinzaбonlik kabi xislatlar asrlardan — asrlarga meros bo'lib o'tib kelmoqda. Demakki, bu xususiyatlar elimiz, yurtimiz, millatimizning qondosh va jondosh ajralmas bir ma'naviy qiyofasidir. Endilikda zamondosh yigit— qizlarimiz yurish—turishlari, xatti—harakatlari, kiyinishlari bilan o'zlarini qanchalik o'ta taraqqiylashgan shahar fuqarolari kabi ko'rsatmasinlar, baribir ular qalban shu ma'naviy merosning egasidirlar.

Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" va "Meqrobdan chayon" asarlaridagi Otabek va Anvarjonlar bugungi qizlarimiz baxti king ideali bo'lsa, Kumush va Ra'nolardagi sharq ayollariga xos iffat va latofat, bokiralik, hayolilik, vafodorlik, sevgan kiyovini e'zozlash kabi xislatlar egasi bo'lgan qizlarimiz, yi gitlarimizning orzusi va niyatidir. "Meqrobdan chayon" romani — dagi Anvar va Ra'nolarning she'riy yozishmalariga e'tibor beralik.

Anvar:

*Agar Farhodning Shirini, bo'lsa Majnunlarning Laylosi-
Nasib bo'lmish menga gulshan aro gullarning Ra'nosi.*

Mazmuni: Farhodga Shirin nasib qilgan bo'lsa, Majnunga Laylo nasib qilgan bo'lsa, barcha go'zal qizlarni bir gulshanga yig'sak, shu qizlarning sarasi, ya'ni ra'nosi men ga nasib qiladi, — deb o'z qalb tug/yonlarini, baxtidan nihoyatda mam -nunligini ziyolilarga xos o'ta nozik e'zozlash orqali etkazadi.

Ra'no:

*Muqabbat jomidan no'sh aylagan aqli zako bo'lmish,
Fununiy tilda majnundir kishining kuysa safrosi*

Mazmuni: Muqabbat sehrining samimiy tuyg'ulari to'ldi — rilgan taboqdan baqra olgan insonning aqli teran, tafakkuri kuchli bo'ladi. Bunda ma'naviy ozuqadan baqramand bo'lgan kishi hech qachon telba (majnun) bo'lmaydi. Tabobat ilmidan ma'lumki, kishining safrosi kuysagina u telba bo'lishi mumkin.

Bu asarda sharhona muqabbatning nafis, e'zozli, haqiqiy me'yoriga etkazilgan ideal namunasi bayon etiladi. Yozuvchi za — mondosh yigit —qizlarimizni ana shunday beg'ubor, samimiy, e'zozli sevishga undaydi.

Adib Abdulla Qodiriyning asarlarida komil insonlargagina xos bo'lgan bunday nozik his— tuyg'ular, fazilatlar aks ettirilgan o'rinlar bisyordir. Ulardan yosh yigit —qizlarimizni tarbiyalashda o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Merosiy manbalarimizning yana biri Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asaridir. Alloma bu asarida qizlarga shunday murojaat qiladi: qizim, sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish bir xonadonga kelin bo'lib tushmoqdasan. Ering osmon bo'lsa, sen yer bo'l, Osmon o'zining shifoli yomqiri bilan erni ko'kartirganidek ering ham o'z mehri bilan seni asrab-avaylaydi. Eringning ko'ziga pala —partish ko'rinma, o'zingga oro ber, suv va surma hamisha xamroqing bo'lsin. Ering kuchi etmagan narsalarni olib ber deb xarxasha qilaverishni man qilaman...

Abu Rayhon Beruniy bu fikrlarini xuddi bugun qizlarimiz va ayollarimizning quloqlariga shivirlayotgandek, nazarimizda. Beruniyning ijodiga razm solsak, ul zoti sha rifning nihoyatda ko'p mutolaa qilganini, izlanganini, o'ziga nisbatan nihoyatda talabchan bo'lganligining guvoqi bo'lamiz. Beruniy faqat hayitlardagina dam olganlar. Ular hayitning birinchi kuni xastalarni, ko'ngil yaqinlarini, yoshi ulug'larni ziyorat qilganlar. Ikkinchi kuni marhumlar xonadoniga tash rif buyurib, ularni yod aylaganlar. Uchinchi kuni esa keyingi hayitga etgulik ozuqa va kiyim bosh, kerakli uy ro'zqor buyumlari, asboblarini xarid qilish uchun vaqt ajratganlar.

Beruniy 76 yoshida xastalanib yotib qoladi. Anchadan beri to'shakka mixlanib qolgan Beruniyning holidan shogirdlari kirib chiqib, dam badam xabar olib turadilar. Shunday kunlarning birida Beruniydan hol so'rash uchun qozi Valvalu jiy tashrif buyuradi. Beruniy qozining meros taqsimotiga yangi sharhlar kiritganini eshitgan, lekin qozi bilan bu haqda beamaylixotir suhbatlasha olmagan edi, o'sha sharhni qozidan aytib berishini iltimos qiladi. qozi: "Ma'qul, ammo sal kuch yig'ib olganingizdan so'ng bafurja gaplasharmiz", deydi. Beruniy: "Ey qozi, men shu meros taqsimoti haqidagi sharhin gizni bilmay bu dunyodan ko'z yumib ketganimdan ko'ra bilib, xotirjam ketganim afzal emasmi" deydi. Noiloj qolgan kozi meros taqsimoti sharhini bayon qiladi. Beruniy bor vu j udi bilan ko'zi yumilgan holda tinglar, ayrim joylarini ma'qullar, ayrim joylariga o'z fikrini va takliflarini bi,l`dirar edi. So'zini tugatgan Valvalujiy Beruniyning og'ir nafas olishiga qarab, bugun shu suqbat shart emasmi, ul zotni toliqtirib quydim, deb xjolat bo'ladi va ketishga ruxsat so'raydi. U hali mahalla boshidagi uyiga etib ham kel magan ediki, Beruniyning hovlisidan yig'i ovozi eshitiladi. Va.g`valujiy orqasiga qaytadi. Davr ilmiga tashna, fan fi doyisi Beruniydan shu tarzda judo bo'lgan edi. Ul tabarruk zot o'zidan bir qancha noyob asarlar qoldirdiki, mana necha asrlar-dan buyon uning avlodlari bu bebaho manbalardan o'zlari uchun boy ma'naviy ozuqa olib kelmoqdalar. Ularning adolatli, oqil fnklari hanuzgacha ma'naviy dunyomizni mash'al kabi yoritib kelmoqda. Allomaning quyidagi misralariga diqqat qiling:

Hech bir gap qolmadi mavhum bo'lmagan,

Juda oz sir qoldi ma'lum bo'lmagan

Bilimim haqida chuqur o'ylasam,

Bildimki hech narsa ma'lum bo'lmagan.

Ul zot ulkan kashfiyotlar, chuqur bilim egasi bo'lishlariga garamasdan o'zining qech narsa bilmasligini, bundan ham ko'p bilish mumkinligini aytib, o'ziga nisbatan norozilik bildirmoqda. Bundan ham ortiq kamtarlik va bundan ham ortiq ga talabchanlik bo'lmasa kerak. Beruniyning bu fikrlari tolibi ilm ahli uchun katta hayotiy saboq, vaqtning har bir daqiqasi qayta takrorlanmas ekanligini tushunish, uni behuda sarflamaslik, kadriga etishning' amaliy namunasi. Balki bu fursatdan qanday foydalanganligi, el va jamiyat manfaati yo'lida nima ishlar qilganligi bilan o'lchanadi. Bir asr umr ko'rib, nom nishonsiz o'tganlar ham bor, oz umr ko'rib, abadiy nom qoldirganlar ham bor. Insonlar el nazarida uy —joy, molu mulklari bilan yashamaydilar, balki xalq uchun qilgan sharaflari bilan barhayot yashaydi. Tarixga nazar solsak, necha-necha arslar davomida shoqlar, boylar, darveshlar, xullas qancha —qancha insonlar bu hayotdan o'tishgan. Ammo xalqi uchun, uning ma'naviy kamoloti yo'lida riyozat chekkan Forobiy, al — Buxoriy,

Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Najmiddin Kubro, Baqovuddin Naqshband, Lutfiy, Alisher Navoiy, Binoiy, Ko-shifiy kabi allomalarimiz insoniyat kamolotining yo'lchi yulduzlari bo'lganliklari uchun mana necha asrlar o'tibdiki, biz bilan yonma yon yashayotgandek ishimizga, o'ylarimizga, orzula — rimizga hamkor, hamnafas, ruqi — poklari xotiramizda aba diydir.

Yaxshi fazilatlar qalbida makon qurgan va ularni hayoti davomida yanada sayqallab, takomillashtirib borgan inson kamal otga erishib boraveradi. Aqliy, axloqiy, xuquqiy va kagbiy bilimlari sarchashmasini to'latib, kamolotga intila borgan i inson jamiyatda quyosh kabi nur sochib turadi. quyosh o'z nuri bilan ham isitib, ham shifo berganidek, komil inson ham yur — tiga, Vataniga faqat yaxshilik keltiradi, unga ma'naviy ozuqa va ezgulik beradi. Insonning tarbiyalanganligini qanday ba-; holash mumkin Uning mezoni nimadan iborat? Inson komilligining mezoni uning o'qib —uqqanligi, aqliy va axloqiy bilimlari savishi va ularni hayotda qo'llay bilish | ko'nikmasini hosil qilganligi bilan belgilanadi.

Ongi bilimlar ummoniga aylangan, o'qib —uqqan tolibi ilm' ahllarimizning tafakkuri boy, til —zaboni shirin, kamtar bo'lib, to'plagan bilim zahiralaridan o'zgalarni ham bahramand eta bilmog'lari zarur, Shunday insonlar borki, aqliy bilimi chuqur, ammo axloqiy bilimi sayoz. Aksincha axloqiy bilimi etarli, I kin aqliy bilimi qoniharli emas. Agar inson aqliy va axloqi y bilimlarini puxta egallab, uni chuqur tafakkur qilsa va til dasturxoniga solib, uni xaridorlariga chiroyli qilib, mehr bilan bera olsa ayni muddao.

Jamiyatimizning ravnaqi shundan, farzandlaliviz imiz kamoloti shundandir. Respublika Oliy Majli'sining 12-sessiyasida Prezidentimiz tomonidan "Kuch —bilim va tafakkurda" degan teran bir fikr ilgari surildi. Tafakkur — insonning butun hayotiy va ijtimoiy faoliyatini idora qiluvchi ongiy kamolot o'lchovidir. Faqat bilim olish, hayotni kuzatish, uni o'qish va uqish, yaxshi va yomonni taqlil qilish, ulardan xulosa chiharish orqali tafakkurga erishiladi. Tafakkur aql tarozisi bo'lgan til orqali namoyon bo'ladi.

Sizning so'zlagan so'zingiz, aytgan fikringiz tafakkurgingizning, aql-idrokingizning, ongingizning oyinasidir.

Bu qaqida, fahm-farosat, tafakkur haqida allomalarimiz manbalarda shunday yozadilar:

Inson notiqligi, saodat tildan,

Nazokat tildandir, nafosat tildan,

hayot saboqlari ko'rsatur shuni,

Do'zax tildan erur va jannat tildan.

Ikki narsa ajratadi insonlarni hayvondin,

*Insonligi bilinadi hunar ila zabondin,
Shunday ekan, kishilarning eng ulug'i hunarmand,
Yoki so'zga chechan kishi, fikri ravon, tili kand.*

(Ibn Sino.Farosat ilmi qaqida.)

*Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir,
Va barcha xalqlar uchun yoqimlidir.
U mansabdor kishilardan go'zalroq va,
Badavlat odamlardan hurmatliroqdir.*

(A.Navoiy. Maqbul ul-qulub.)

*Go'zallik yuzda emas, ey birodar,
So'zi shirin kishi har kimga yohar.
So'zing oz bo'lsin-u, ma'noli bo'lsin,
Eshitganlar quloqi durga to'lsin.
So'zing bo'lsa kumush, jim turmak oltin,
Misi chiqqay so'zing ko'p bo'lsa bir kun.
Ko'paygan so'zning bo'lqay to'qrisi oz,
Shakarning ko'pidan ozi bo'lar soz.*

(A-Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.)

II BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY -AXLOQIY TARBIYALASHNING AMALIY ASOSLARI.

2.1.. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan pedagogik talablar.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy yo'nalishlarida ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish kadrlarni o'qitish va ularni tarbiyalash insonparvarlik va demokratik tamoyillari, mustaqillik sharoitida erishilgan yutuqlar, o'zbek xalqining milliy-ma'naviy, intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim mazmuni isloh qilinadi. Yangilangan ta'lim mazmuni ta'lim oluvchining ta'lim jarayoni va bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirish, mustaqilligini ta'minlash, insoniy qadr-qimmatini ulug'lashga qaratilgan g'oyalarga asoslanadi

Ta'lim jarayoni mazmunini aks ettiruvchi ta'lim standartlarida bo'lajak tarbiyachilarning mustaqil o'qib-o'rganishlari zarurligi va buning uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadga muvofiqligiga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur standartda bakalavrlar tayyorlash jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning quyidagi umumiy malakaviy talablarga javob bera olishlari nazarda tutilgan:

- bo'lajak tarbiyachining tizimli bilimga ega bo'lishi;
 - vatanimiz tarixini bilishi, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z mustaqil fikrini bayon qila va asoslay olishi, faol nuqtai nazarga ega bo'lishi;
 - tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayonlar, hodisa va voqealar haqida yaxlit bilim va tasavvurlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasb faoliyatida foydalana olishi;
 - o'zaro munosabatlarda, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va hayotiy mezonlarni bila olishi hamda kasb faoliyatida, hayotda ularga rioya qilishi;
 - sog'lom hayot tarzini yuritishga doir tasavvur va e'tiqodga ega bo'lishi, o'z-o'zini jismonan chiniqtirib borishi;
 - axborotlarni yig'ish va qayta ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi;
 - yangi bilimlarni mustaqil egallay olishi, o'z ustida ishlashi va o'z mehnatini ilmiy tashkil etish qobiliyatiga ega bo'lishi
- Bo'lajak tarbiyachilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimum darajasini belgilashda ta'lim jarayonida bilim oluvchining shaxsi, shaxsiy sifatlar, pedagogik texnologiyalar: differentsial ta'lim, individual ta'lim, dasturlashtirilgan ta'lim, ta'limda axborot texnologiyalari, mualliflik texnologiyalari, bilimlarni

o'zlashtirishni nazorat qilish texnologiyasi, o'yin texnologiyalari, modulli texnologiya, interfaol texnologiyalar, texnologik xarita va hokazolar borasidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish talab etilganligi diqqatga sazovordir.

Maktabgacha ta'lim fanlari bo'yicha yaratilgan Davlat ta'lim standartlarida bo'lajak tarbiyachini shakllantirishda pedagogik va psixologik bilimlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga alohida ahamiyat qaratilgan. Jumladan, individ, shaxs, sub'ekt, iroda, hissiyot, idrok, ehtiyoj, rag'bat, maqsad, hissiyot, diqqat, kayfiyat, xotira, tafakkur, dunyoqarash, o'z-o'zini anglash, shaxs rivojlanishining asosiy bosqichlari, yosh davrlari borasidagi bilimlarning pedagogik g'oyalar bilan uyg'unlashtirilganligi, birinchidan, bo'lajak tarbiyachilarning ular haqidagi bilimlari puxta bo'lishini ta'minlash, ikkinchidan, ularni bo'lajak tarbiyachi etib tarbiyalashga yordam beradi.

“Shaxs shakllanishining psixologik mexanizmlari” mavzusini o'rganishda esa shaxs psixik holatlarini tashhislash, iqtidorli yoshlarni tanlash, tarbiyalash va o'qitish, bilimlarni nazorat qilish ko'zda tutilgan.

“Maktabgacha pedagogika” o'quv dasturi mazmunini muammo nuqtai nazaridan tahlil etganda, quyidagi holatlar ko'zga tashlandi:

1. Avvalo, dasturni tuzishda maktabgacha pedagogika fanining maqsad va vazifalari asos qilib olingan. Unda bo'lajak tarbiyachini shakllantirishda talaba-yoshlarni hozirgi zamon maktabgacha pedagogika fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish, ularda yangicha pedagogik tafakkurni shakllantirish, yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, zamon ta'lim texnologiyalaridan ularni xabardor qilish kabilar nazarda tutilgan.

2. “Pedagogika nazariyasi” bo'yicha beriladigan bilimlar mazmunida ham O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko'rsatib o'tilgan yetakchi ta'limiy g'oyalar bo'lajak tarbiyachini shakllantirishga yo'naltirilgan tamoyil asos qilib olinadi. Buni “Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi” mavzusini o'rganishga qo'yilgan talablardan ham anglash mumkin. Mavzu doirasida bo'lajak tarbiyachilarga shaxs haqida tushuncha berilib, individ, shaxs, shaxsning o'ziga xosligi, individuallik, shaxs rivojlanishining biologik va ijtimoiy asoslari, o'quvchi shaxsi – tarbiya ob'ekti va sub'ekti ekanligi, shaxs faoliyati, yosh davrlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, shaxsning ijtimoiylashuvi, iqtidor, uning turlari, shaxs iqtidori darajasini aniqlovchi mezonlar, shuningdek, shaxs rivojlanishi va tarbiyasining o'zaro uyg'unligi to'g'risidagi nazariy ma'lumotlar beriladi.

“Tarbiya maqsadi va vazifasi” mavzusini o'rganishda demokratik jamiyatda har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yurituvchi, erkin shaxsni shakllantirish tarbiya maqsadi ekanligiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

I.A.Karimovning mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari borasidagi qarashlari, Sharq mutafakkirlarining bo'lajak tarbiyachi tarbiyasi haqidagi g'oyalari mavzu uchun asos qilib olingan.

Mavzu doirasida tarbiya vazifalari, tarbiya jarayonida milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanish, ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari, texnokratik va insonparvarlashgan pedagogika mohiyatini ochib berish ham nazarda tutilgan.

“Pedagogika tarixi” o'quv fanini o'qitishda esa eng qadimgi davrlardan boshlab, hozirgi kungacha bo'lgan tarbiya tarixi o'rganilar ekan, barcha zamonlarda ham shaxs tarbiyasi asosiy muammo sifatida e'tirof etilgani, Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlarda tarbiyachi vazifasi masalasining yoritilishi, mazmuni, shakl va metodlariga e'tibor qaratilishi, shuningdek, bu boradagi jahon pedagogikasi tajribalarini inobatga olish maqsadga muvofiqligiga urg'u berilgan.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o'z aksini topgan kadrlarni tayyorlash borasidagi talablar, fanning o'qituvchi-tarbiyachi kadrlarni tayyorlashdagi o'rni, roli, o'qituvchi-tarbiyachi shaxsini shakllantirish, uning umumiy madaniy saviyasi, kasbiy mahoratni oshirish, o'qituvchi-tarbiyachilik faoliyat to'g'risidagi bilimlarni berish nazarda tutiladi. Fan doirasida, yana shuningdek, o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi muloqot, pedagogik nazokat va odob-axloq, pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish yo'llari, pedagogik texnika, tarbiyalanuvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish, jamoada ijtimoiy fikrni uyg'otish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, pedagogik izlanish kabi masalalarning o'rganilishi nazarda tutilganki, ularning barchasi bo'lajak tarbiyachilarni kasbga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur o'quv fanining mazmuni kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka asoslangan. Ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining ob'ekt va sub'ekt sifatidagi o'rni, shaxs sifatлари, temperament, psixik jarayonlar, pedagogik tajriba, shaxsga yo'naltirish texnologiyalari, “Pedagogik hamkorlik” texnologiyasi, Ye.N.Ilinning adabiyot o'qitish texnologiyasi, Sh.A.Amonashvilining insonparvarlashtirilgan ta'lim texnologiyasi kabilarga asoslangan.

“Pedagogik texnologiyalar” o'quv dasturining maqsadi ham bo'lajak tarbiyachilarchilarni zamonaviy pedagogik yutuqlar, texnologiyalar va ilg'or tajribalar borasidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat etib belgilangan.

O'quvchilar faoliyatini faollashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalar mohiyatini ochib berishda rolli o'yinlar, muammoli o'qitish va uning o'ziga xos xususiyatlari (muammoli vaziyatlar

yaratish, muammoni faol idrok etish, murakkab masalalarni mustaqil hal etish va izlanish), xorijiy mamlakatlarning bu boradagi tajribalarining yoritilishi ham nazarda tutilgan.

O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan texnologiyalar, differentsiatsiyalashgan ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim, individual o'qitish texnologiyasi; axborot texnologiyalarining mohiyatini o'rganish masalalari ham o'quv fani bo'yicha o'zlashtiriluvchi bilimlar majmui sifatida qamrab olingan.

Ma'lumki, talabalar bo'lajak tarbiyachi sifatida o'zlarini bevosita pedagogik amaliyot jarayonida namoyon etadilar. Ulardagi o'zgarishlar, shaxsiy xislatlarini o'zaro munosabatlarda aniqlash oson kechadi. Zero, shaxsni har tomonlama o'rganish uchun ob'ektiv, real sharoit zarur. Xuddi mana shu yerda kasbga muhabbat tuyg'usi shakllana boradi.

Tajriba natijalarining ko'rsatishicha, bo'lajak tarbiyachilarning shaxslik xislatlari qay darajada shakllanganligini aniqlash qator nazariy, diagnostik va shakllantiruvchi metodlarni qo'llashni taqozo etadi. Jumladan, suhbat, bo'lajak tarbiyachilar faoliyatini tahlil etish, pedagogik vaziyatlar, so'rovnomalar, intervyu, reyting nazorati va natijalarni tahlil qilish tajriba-sinov ishlarining borishi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, shuningdek, tadqiqot bosqichlari va amaliy faoliyat turlarini belgilash uchun imkoniyat yaratadi.

Bu borada, ayniqsa, pedagogik kuzatish metodidan samarali foydalaniladi. Metod yordamida bo'lajak tarbiyachilarning faoliyati tabiiy sharoitlarda va bo'lajak tarbiyachilarda mavjud bo'lgan shaxslik xislatlarini ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'linadi.

Suhbat metodi ham bo'lajak tarbiyachilar faoliyati, ularning shaxsiy xislatlari va ularga egalik darajasini tashhishlashda muhim ahamiyatga ega. Biroq suhbat jarayonida bo'lajak tarbiyachilar doimo o'zlarini va o'zliklarini namoyon eta olmasliklari ham mumkin.

Bo'lajak tarbiyachilarning shaxslik xislatlariga ayniqsa egallayotgan kasblariga muhabbat tuyg'usiga egaliklari darajasini baholashda ularning ijodiy faoliyatlari (yozma ishlar, ijodiy ishlardan namunalar, o'qilgan badiiy va ommabop asarlar, matbuot materiallarida ko'tarilgan mavzularga munosabatlari)ni o'rganish va tahlil etish eng maqbul metodlardan sanaladi.

SHuningdek, bo'lajak tarbiyachilar shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni ham o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda quyidagilar inobatga olinishi muhim:

1. Talabaning ma'naviy-axloqiy xislatlari, uning xulqida namoyon bo'luvchi o'ziga xos xususiyatlar, hayotiy qarashlari, erkinligi, mustaqilligi, shaxsiy fikrlarini ifoda eta olishi, o'z-o'zini nazorat qilishi, hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf eta olish qobiliyatiga egaligi, shaxslik xislatlarining har tomonlama rivojlanganligi.

2. Talaba qiziqishining yo'nalishi: qiziqishlari, hayotiy maqsadlari, motivlar.

3. Ma'naviy-axloqiy rivojlanishining intellektual va estetik rivojlanishi bilan aloqadorligi.

4. Talabada shaxslik xislatlari shakllanishining yo'llari, o'z-o'zini tarbiyalash borasidagi amaliy harakati.

Har bir talabani shaxs sifatida mazkur yo'nalishlarda o'rganish bo'lajak tarbiyachi tarbiyasiga maqsadga muvofiq yondashishni ta'minlaydi. Zero, har bir talaba o'zini alohida shaxs sifatida namoyon eta olishi bilan birga o'zi mansub

Zamonaviy pedagogika ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish va uni shaxsga yo'naltirish g'oyalarining ustuvorligi bilan an'anaviy ta'limdan farqlanadi.

Tub ta'limiy islohotlar amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ta'lim jarayoni o'zaro hamkorlikka asoslanadi va o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Zero, tarbiyaning samarali bo'lishiga bir qator omillar sezilarli ta'sir etadi, shu sababli sub'ektiv va ob'ektiv omillardan maqsadga muvofiq foydalanish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish talab etiladi.

SHu o'rinda pedagogik jarayonning o'zi qanday bo'ladi, degan muammo paydo bo'ladi. Ma'lumki, "pedagogik jarayon" tushunchasi P.F.Kaptarev tomonidan iste'molga kiritilib, u – shaxsni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish, shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat mohiyatini ifodalaydi. Muallif "pedagogik jarayon" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Pedagogik jarayon asosan ikkita harakatli xususiyatni: organizmning o'z-o'zini rivojlantirishga tizimli yondashuvini va shaxsni har tomonlama rivojlantirishni o'z ichiga oladi" Pedagogik jarayon ijodiy xususiyat kasb etadi. Bu quyidagilarda ko'rinadi:

1. Ta'lim jarayonida muomala mazmuni, muhit, o'zaro munosabatlar uslubi talabaga barcha insoniy xislatlarni o'zlashtirish, o'zini inson sifatida anglash, hurmat qilish tuyg'usini tarbiyalashga yordam berishi kerak.

2. Pedagogik jarayon o'zgalarning his-tuyg'ularini his etish, axloqiy me'yorlarga amal qilish, shuningdek, ta'limning ijtimoiy ahamiyatini tushunishga yordam berishi zarur.

3. Pedagogik jarayon yoshlarda ijodkorlik, ziyraklik, mustaqillik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni tarbiyalashi lozim.

Shu jihatdan pedagogik jarayonni bo'lajak tarbiyachilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda modellashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda bo'lajak tarbiyachilarning yetuk balog'at yoshida ekanliklari hamda ularning "Men"ini hisobga olgan holda o'qitish texnologiyalarini tanlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, quyidagi shartlarga amal qilish ham talab etiladi:

1. Pedagogik jarayonda ta'lim oluvchilarning erkin tanlash hissiga ega bo'lishlari muhim. Bu ular nimani xohlasalar, shuni o'qishlari mumkin degani emas, aksincha, ta'lim jarayonida o'quv-bilish faoliyatini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish, o'quv materiallarining ular uchun

shaxsiy ahamiyatga etishiga erishish, bilimlarni ongli o'rganishga nisbatan xohish-istakni uyg'otish zarur.

Bilimlar ta'lim oluvchilarga tayyor holda yetkazilmay, turli faoliyatga jalb etgan holda ularni o'ylashga, xulosalar chiqarishga, shaxsiy qarashlarini erkin bayon etishga yo'llash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar Bo'lajak tarbiyachilar o'rtasida o'zaro hamkorlik yuzaga keladi.

2. Pedagogik jarayon rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi zarur. Bunda bo'lajak tarbiyachilarga nazariy bilimlarni berish bilangina cheklanmay, ularni hayotiy misollar asosida yoritish zarur, shundagina ularda kuzatish, tasavvur etish, idrok etish kabi malakalar shakllanadi. O'quv materiallari mazmunining amaliy bilimlar bilan boyitilishi, nazariy bilimlarning amaliy ahamiyat kasb etishiga erishish pedagogik jarayonning samarali kechishiga yordam beradi. Bu o'rinda mashg'ulotlarning maslahat, kengash tarzida tashkil etilishi o'qituvchi va bo'lajak tarbiyachilar o'rtasida hamkorlikni yuzaga keltiradi, bo'lajak tarbiyachilar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni qadrlash, ularga rag'bat, ishonch bildirish esa bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqtirishni kuchaytiribgina qolmay, balki pedagogik jarayonning rivojlantiruvchi xarakter kasb etishini ta'minlaydi.

3. Pedagogik jarayon bo'lajak tarbiyachilarda muayyan his-tuyg'ularning uyg'onishiga olib kelishi zarur. Zero, ta'limni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad bo'lajak tarbiyachilarga ilmiy bilimlarni berish, ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanmay, har bir talabanning his-tuyg'ularini rivojlantirish, o'z ichki kechinmalarini anglash, xohish-istak va ehtiyojlarini baholay olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday jarayon bo'lajak tarbiyachilarning shaxs sifatida shakllanishlarida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu g'oyani L.V.Zan'kov, V.V.Davidov, A.N.Leontevlar ham tasdiqlaydilar. Ta'limga nisbatan tarbiyaning natijasi birdan ko'zga tashlanmaydi. Ayrim holatlarda salbiy ta'sirlar bo'lajak tarbiyachilarning ijobiy sifatlariga teskari ta'sir etadi. Demak, tarbiya jarayoni o'zgaruvchan xususiyatga ega va u uzoq muddatli sanaladi.

Tarbiyaviy ta'sirlar vaqti-vaqti bilan ko'rsatilmay, balki uzluksiz, izchil, uzviy, tizimli va maqsadga muvofiq bo'lishi zarur.

Tarbiya jarayoni, shuningdek, variativ bo'lib, u bir xil shakl yoki metod yordamida emas, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi hamda goho natijaga erishishda noaniqliklar ham paydo bo'lishi mumkin. Bunday holat tarbiyalanuvchining ham, tarbiyalovchining ham individual farqi, ijtimoiy tajribasi, tarbiyaga munosabati bilan belgilanadi.

Tarbiya, ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, u talabadan o'qituvchiga; o'qituvchidan talabaga yo'naltiriladi. Tarbiyaga texnologik yondashuv mazkur talabning to'la qondirilishiga yordam beradi.

Zamonaviy sharoitda pedagogika nazariyasi va amaliyotida “texnologiya” tushunchasi yangi mazmun kasb etmoqda. U.N.Nishonaliev, B.L.Farberman, M.Ochilov, N.N.Azixodjaeva, N.Saidahmedov, M.V.Klarin, V.A.Slastenin, S.K.Ismagulova, O’.Tolipov, M.Usmonboeva va boshqalarning ta’riflarini umumlashtirgan holda V.P. Bospalkoning pedagogik texnologiya “Pedagogik faoliyat muvaffaqiyatini kafolatlay oluvchi hamda o’quvchi shaxsini shakllantirishga yo’naltirilgan jarayon loyihasi” degan ta’rifga muammo nuqtai nazaridan qo’shilamiz.

Lekin O’.Tolipov va M.Usmonboevalarning “Pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, maqsadga yo’naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir” degan ta’rifi ham maqsadga muvofiq keladi. Shunday ekan, bo’lajak tarbiyachini kasbga muhabbat ruhida tarbiyalashga texnologik yondashuvda ham pedagogik ta’lim jarayonini puxta loyihalashtirish va aniq, maqsadga yo’naltirilgan holda tashkil etish muhim sanaladi. Bu o’rinda dastlab ta’lim maqsadi aniqlab olinadi, muayyan o’quv jarayoni uchun ta’lim uslublari tanlanadi va nihoyat ta’lim jarayoni uzluksiz nazorat qilib boriladi.

Mazkur jarayon o’zaro ketma-ketlikka asoslanuvchi bosqichlarda amalga oshiriladi. Bu ketma-ketlikni O’.Tolipov quyidagicha belgilaydi:

- ta’lim jarayonining umumiy, asosiy maqsadini belgilab olish;
- ta’lim jarayonini real, muayyan bosqichlarga bo’lish va har bir bosqich uchun xususiy maqsadlarni belgilash;
- asosiy maqsadga erishish uchun juz’iy maqsadlarni hal etish.

Texnologik yondashuvga asoslanuvchi pedagogik faoliyatning o’ziga xos murakkabligi shundaki, birinchidan, ta’lim bir butun, yaxlit jarayon bo’lib, pedagogik ta’sir shaxsda alohida sifatlarni tarkib toptirishga emas, balki tarbiyani yaxlit olib borishni nazarda tutadi; ikkinchidan, shaxsda muayyan sifatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi texnologiyalar ma’lum qismlarga ajratilmasdan, balki o’qituvchining o’ziga xos mahoratiga tayangan holda umumiy texnologik jarayonni tashkil etishga e’tibor beriladi; uchinchidan esa, yaxlit shaxsni shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon o’qituvchining ijodkorligi, ta’lim qonuniyatlaridan kelib chiquvchi asosiy bosqichlarni o’z ichiga oladi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida bo’lajak tarbiyachilarni kasbga muhabbat ruhida shakllantirishda quyidagi holatlarga e’tibor qaratadi:

- talabaning ongi, his-tuyg’usi, xulqiga ta’sir etish;
- talabaning tashqi ta’sir asosida o’z-o’zini tarbiyalashi;
- shaxs tarbiyasi bilan bog’liq barcha sohalarning o’zaro aloqasi;
- shaxsni shakllantirishda aqliy, axloqiy, estetik va boshqa tarbiyaning tarkibiy qismlarining uyg’unligiga erishish;
- shaxsni shakllantirish jarayonining tizimliliigi;

- bo'lajak tarbiyachilarning bilim darajasini aniqlash .

Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvda o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik, ularning bir-biriga ta'siri hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish, shaxsni shakllantirishga yo'naltiruvchi uslublar, talaba faoliyatini to'g'ri tashkil etish, pedagogik jarayonda paydo bo'lgan muammolarni bartaraf etish, ijodiy ishchanlik muhitini yaratish, talaba faoliyatini baholash kabi o'quv-biluv ishlari amalga oshiriladi. Ammo ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv – bu hali shaxsni shakllantirishni to'liq hal etadi, degan so'z emas.

Masalan, “Pedagogika nazariyasi” bo'yicha “Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi” mavzusi o'rganilganda dastlab shaxs, shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, irsiyatning, muhitning inson kamolotiga ta'siri, shuningdek, inson kamolotida maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaning o'rni hamda shaxsiy faoliyatning ahamiyati, yosh davrining xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Bu jarayonda bosh maqsad bilish jarayonini tashkil etish, Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat bo'lsa, uni amalga oshirish chog'ida quyidagi xususiy maqsadlar ham hal etiladi:

- bo'lajak tarbiyachilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish;
- shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishining o'ziga xos jihatlari;
- jismoniy rivojlanish qonuniyatlari;
- shaxsning ijtimoiylashuvi.

Ushbu xususiy maqsadlar bo'lajak tarbiyachini kasbga muhabbat ruhida shakllantirish jarayonida:

- ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish;
- kasb-hunarga yo'llash;
- ma'naviy- axloqiy tarbiya;
- aqliy tarbiya;
- ijtimoiy-g'oyaviy tarbiya;
- jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish;
- estetik tarbiya;
- fuqarolik tarbiyasi kabilarni uyg'un holda tashkil etishni taqozo etadi.

Masalan, aqliy tarbiya jarayonida ilmiy bilimlar asosida talaba dunyoqarashi shakllanib, tabiat va jamiyatda kechayotgan voqea-hodisalar haqida tushunchalar paydo bo'ladi, mantiqiy tafakkur rivojlanadi, aqliy qobiliyat namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida hayotini to'g'ri yo'lga qo'yishga yo'llaydi.

Shaxsning kamolga yetishida:

- muayyan ilmiy bilimlarga ega bo'lish;

- ilmiy dunyoqarashga egalik;
- aqliy qobiliyatni rivojlantirish va uni ro'yobga chiqarish;
- bilishga doir qiziqishlarini uyg'otish va faollashtirish;
- bilimlarni doimiy ravishda oshirib borishga nisbatan ehtiyojni hosil qilish va hokazolar muhim sanaladi.

Ko'p holatlarda yosh avlodga ta'lim berishda asosiy e'tibor bilishga, ular tomonidan bilimlarni o'zlashtirishga qaratilib, aqliy tarbiyaning bo'lajak tarbiyachini shakllantirishdagi roli va o'rnini yetarlicha baholanmaydi, shaxsda turli faoliyatlarni tashkil eta olish ko'nikmalarini, shuningdek, borliqqa nisbatan estetik munosabatni hosil qilishga e'tibor berilmaydi. Shu sababli ta'lim jarayoni shaxsni shakllantirishga emas, balki unda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga qaratiladi.

“Axloqiy tarbiya” mavzusini o'rganishda esa asosiy e'tibor mavjud ijtimoiy-axloqiy talablarga muvofiq holda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish maqsadida ularning ongi, hissiyoti hamda xulqiga maqsadga muvofiq, tizimli ta'sir etishga qaratiladi.

Axloqiy tarbiya aqliy, ijtimoiy-g'oyaviy, jismoniy, mehnat va kasb-hunarga yo'llash, nafosat, iqtisodiy, ekologik, huquqiy tarbiya kabilar bilan bir butun yaxlit holda bo'lajak tarbiyachilarni kasbga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Bugungi kunda o'z-o'zini shakllantirishga xizmat qiluvchi shaxsiy dasturlarni loyihalash, bo'lajak tarbiyachilarni ularning qiziqishlariga ko'ra tabaqalashtirilgan guruhlariga birlashtirish va ta'lim samaradorligini o'rganish yo'lida monitoringni yo'lga qo'yish, testlar, jarimalar (ball ko'rsatkichlari asosida) kabi tarbiyaning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish ham ijobiy natijalarni qo'lga kiritishga imkon beradi.

Shuningdek, tarbiya jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash samarali natijalarga erishishga imkon beradi. Innovatsion metodlar bo'lajak tarbiyachilarda voqealar rivojini oldindan ko'ra bilish, o'zini real voqealikda anglash, kelgusi hayot yo'lini to'g'ri belgilash, axloq, e'tiqod, ishonch va axloqiy qadriyatlar mohiyatini to'g'ri anglash, turli ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu borada:

- o'z kasbiga muhabbat;
- har bir tarbiyalanuvchida o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch hissini tarkib toptirish;
- hamkorlik va samimiy muloqot madaniyati;
- majburiy ijodkorlikni inkor etish;
- tarbiyalanuvchining ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda uni muayyan faoliyatni tashkil etishga rag'batlantirish;

- tarbiyalanuvchilarning ayrim xatti-harakatlari (topshiriqlarni o'z vaqtida tayyorlamaslik, bog'cha muassasasi ichki qoidalariga to'la rioya etmaslik, tarbiyachi va atrofdagilarga yetarlicha hurmat ko'rsatmaslik va boshqalar)ga nisbatan chidamli bo'lish, ularning sabablarini aniqlash va bu kabi salbiy odatlarni bartaraf etish yo'lida amaliy faoliyatni tashkil etish.

Mazkur talablarga amal qilish jarayonida, shuningdek, tarbiyachilik jarayonining tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida o'zaro mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, rahmdillik, xayrixohlik, erishilgan yutuq uchun quvonish hamda har bir tarbiyalanuvchining qadr-qimmatini hurmat qilishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ana shundagina tarbiyachilarning qobiliyati har tomonlama ro'yobga chiqadi va bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda qulay pedagogik shart-sharoit yaratiladi.

Tarbiyachilik shaxsiy-hamkorlik xususiyatini kasb etishi, eng avvalo, tarbiyachilarning o'z kasini sevishi, tarbiyachilarning insonparvar, fidoyi va ijodkor bo'lishlari, tarbiyalanuvchilarga munosabatda soxtalik, nosamimiylik va qo'pollikka yo'l qo'ymasliklari, sabrsiz va shafqatsiz bo'lmasliklari zarur. Binobarin, bolalar uchun tarbiyachi ideal shaxs sanaladi va undan o'rnak oladilar. Shu sababli o'qitishda bo'lajak tarbiyachilar ongida quyidagi tushunchalarni shakllantirish zarur:

1. tarbiyachi yeng avvalo o'z kasbini sevishi lozim;
2. bolalarni tushuna olishi lozim;
3. bolalar tarbiyachining kuyunchakligi va mehribonligini his etishlari kerak.
4. tarbiyachi o'zlarining unib-o'sishlari, kamolga yetishlaridan quvonishini sezishlari va his qilishlariga erishish lozim.

Ana shundagina bolalar va tarbiyachilar o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabati yuzaga keladi va bu shaxsning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar pedagogik ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish, kam kuch va vaqt sarflash hisobiga samarali natijalarni qo'lga kiritishda katta imkoniyatlarga ega. Mazkur imkoniyatlardan to'g'ri va maqsadga muvofiq foydalanish pedagogik jarayonga nisbatan texnologik yondashuvni qaror toptirish, ijtimoiy tarbiyaning yetakchi, asosiy maqsadi

tarbiyachilarni shakllantirishga imkon beradi. Zero prezidentimiz ta'kidlaganlaridek;''Bitta yaxshi o'qituvchi yuzlab yaxshi insonlardir.''

2.2 Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashlarining shakli, usullari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil qilinadigan turli mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mashg'ulot tarbiyachi tomonidan bolalarni kerakli bilim va malakalar bilan umumiy holda xabardor qilish demakdir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning mustaqil tafakkurini shakllantirishda mashg'ulot muhim rol o'ynaydi. Mashg'ulotlar kun davomida o'tkazilib boriladi. Kunning birinchi qismiga mo'ljallangan mashg'ulotlar ancha samara beradi. Bola maktabga qadam qo'ygunga qadar asosan bog'chada ta'lim tarbiya olar ekan demak uning ma'naviy axloqiy jihatdan shakllanishida bog'chadayoq zamin yaratiladi.

Mashg'ulot jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalari hosil qilinadi, tarbiyachining so'zini tinglash, o'rtoqlari bilan gaplashmaslik har bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga harakat qilish tarbiyachi tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga o'rganib boriladi. Har bir yosh guruhlarda necha marta mashg'ulot o'tkazish bolalar bog'chasi ta'lim-tarbiya dasturida belgilab boriladi.

Mashg'ulotlar quyidagi shakllarda tashkil qilinishi mumkin:

- Bolalar bilimlarini sinovchi mashg'ulotlar – ushbu mashg'ulotlarni o'tkazishdan maqsad, tarbiyachi dasturda belgilangan bilim va malakalarini egallash darajasini bilib oladi va keyingi mashg'ulotlar davomida ularni inobatga oladi.

- Kompleks mashg'ulotlar – bu mashg'ulot bolalar bog'chasi tajribasida keng tarqalgan bo'lib, bunday mashg'ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi.

Mashg'ulotni tuzilishi esa:

- bolalarni uyushtirish;
- asosiy qism;
- yakuniy qismdan iborat bo'ladi.

Mashg'ulotga tayyorlanish mazmuni ham mavjud bo'lib, ushbu mazmunga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- mashg'ulotni rejalashtirish;
- kerakli jihozlarni oldindan tayyorlash;
- bolalarni mashg'ulotga tayyorlash;

Bolalarni maktabga tayyorlashda tarbiyachi mashg'ulotni bir bo'limidan bitta emas, balki butun bir mashg'ulotni sistemasini rejalashtirib olib borilsa ijobiy natijani qo'lga kiritadi.

Tarbiyachi mashg'ulotlar jarayonida metodik qo'llanmalardan foydalanib mashg'ulot o'tishi tavsiya etiladi. Har bir bog'chada metodik honalar mavjuddir. Unda bolalar bog'chasi ta'lim-tarbiya dasturining, hamda hamma bo'limlari bo'yicha metodik qo'llanmalar bo'ladi.

Yetishmovchiliklarni tarbiyachi o'zi tayyorlaydi va bu ishga ba'zan tayyorlov guruhidagi ya'ni maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni jalb etadi. Tarbiyachi mashg'ulot uchun kerakli mashug'lotlarni mashg'ulotlardan bir kun avval tayyorlab qo'yadi.

MTMning birinchi kichik guruhida haftasiga 10 ta mashg'ulot o'tkaziladi. Ular quyidagicha taqsimlanadi:

1. Atrofdagi voqealar bilan tanishtirish va nutqini rivojlantirish;
2. Rasm chizish va loy yoki plastilindan narsa yasash;
3. Qurilish materiallari bilan mashqlar;
4. Musiqa mashg'ulotlari;
5. Fizkultura mashug'lotlariva x.o.

Mashg'ulotlar 10-15 daqiqa davom etadi va ular shanba kunidan tashqari har kuni ertalab va kechqurun o'tkaziladi. Mashg'ulotlar bilan bir qatorda sayr vaqtida atrofdagi narsalarni kuzatish, harakatli va didaktik o'yinlar rejalashtiriladi.

Mashg'ulotlarning katta qismi rivojlanishi bir xil darajada bo'lgan bolalarni birlashtiruvchi kichik gruppalarda o'tkaziladi. Batafsil tushuntirish va kattalarning yordamini talab qiladigan yangi materialdan foydalaniladigan mashg'ulotlar (masalan, yig'ma kartinalar yoki yangi konstruktor, birinchi marta beriladigan mashg'ulotlar) ana shunday o'tkaziladi. Harakatlarining navbatiga rioya qilinadigan mashg'ulotlarda bolalar uncha ko'p bo'lmasligi kerak. Masalan, gimnastika asboblari bilan o'tkaziladigan fizkultura mashg'ulotlari, «Loto» tipidagi va nuqkni rivojlantirish mashg'ulotlari ana shunday bo'ladi, bunda ayrim bolalar o'z aktivliklari bilan boshqalarini chetga surib qo'yishlari mumkin.

Ammo hayotning uchinchi yilida mashg'ulotlarning ayrim turlarini butun guruh bilan o'tkazish ham mumkin, chunki bola hulk-atvor qoidalarini (butun e'tibor bilan tinglash, jim o'tirish) egallagan bo'ladi, o'z harakatlarini boshqa bolalar bilan muvofiqlashtira boshlaydi, kattalarning nutqi uning harakatini yo'lga soladigan bo'ladi.

Bolalarning butun guruh bilan ayni vaqtda musiqa mashg'ulotlarini, harakatli o'yinlarni, shuningdek bolalarning o'zlari asosan tomoshabin bo'ladigan ko'rgazmali instsenirovkalarni o'tkazish mumkin.

Mashg'ulot vaqtida tarbiyachining e'tiborini hech kim chalg'itmasligi, hona jimjit bo'lishi, halaqit berishi mumkin bo'lgan hamma narsalar chetga olib qo'yilishi kerak.

Bolalarning mustaqil faoliyati bilan ayniqsa o‘yin bilan bog‘lik mag‘ulotlar katta samara beradi. Masalan: musiqa mashg‘ulotlari, sensor rivojlanish mashg‘ulotlaridan foydalanish mumkin.

Hayotning uchunchi yilida bolalarni o‘rgatish ko‘rgazmali tarzda olib boriladi.

Mashg‘ulotlar – MTMda o‘qitishning tashkil etish formasidir. Ular maktabgacha tarbiya yoshidagi hamma bolalar uchun majburiy; ular uchun dastur mazmuni belgilangan, kundalik rejimida doimiy vaqt ajratilgan, ularning qancha vaqt davom etishi tayinlangan.

MTMda mashg‘ulotlar bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Bu mashg‘ulotlarda bolalar o‘quv faoliyati ko‘nikmalari hosil qiladilar, ancha intizomli, uyushgan bo‘lib boradilar. Ularda barqaror diqqat, diqqatni bir narsaga qarata olish, irodaviy zo‘r berilish qobiliyati rivojlanadi. Sistemali o‘qish natijasida bilishga qiziqish paydo bo‘ladi.

Bolalarni kollektivda o‘qitish muayyan afzalliklarga ega: birgalikda ishda ular bir-birlariga aktiv ta‘sir etadilar, tashabbus, faxm-farosat kursatish imkoniga ega bo‘ladilar.

Bolalar oldilariga ko‘pchilikdan kuch-g‘ayrat talab qiladigan vazifalar qo‘yilganda birgalikdagi kechinmalar paydo bo‘ladi, kollektivizm tuyg‘usi vujudga keladi. Ekskursiyalar, rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, qurish yasashga oid ishlarni birgalikda bajarish, umumiy o‘yinlarda va musiqa mashg‘ulotlardagi raqslarda, harakatlarni rivojlantirish mashg‘ulotlarida birlashish, badiiy adabiyotni o‘qish tufayli yuzaga kelgan birgalikdagi kechinmalar – bularning hammasi inok bolalar kollektivini vujudga keltirishda yordam beradi hamda, kollektivda yashash va ishlash ko‘nikmasi hosil qiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar organizmning o‘ziga hos tomoni shundaki u juda tez o‘sadi va rivojlanadi. Shu bilan birga organizm funktsiyalari va sistemalarining shakllanishi, xali tugallanmagan bo‘ladi. Shunga ko‘ra u tez jarohatlanadi. Shuning uchun bolalarga jismoniy tarbiya berishda quyidagilar birinchi darajali vazifalar hisoblanadi:

- Sog‘lomlashtiruvchi vazifalar:
- Ta‘limiy vazifalar;
- Tarbiyaviy vazifalar.

Xalq o‘yinlari «Chillak »,«Kim chaqqon», «Beshtosh », «Oq terakmi-ko‘k terak?», «Quyoning quyoning?», «Chitti gul», «Kim oladi shu ginani». «Uchdi, chopdi, sakradi», «Qushim boshi», «Qoch bolam, qush keldi», «Tortishmashoq» kabi harakatli o‘yinlarda ishtirok eta olishdan iborat.

Tevarak-atrof va ijtimoiy voqealar bilan tantishtirish mashg'ulotlariga bevosita tarix, inson va jamiyat, davlat va huquq asoslari darslarining ilk ko'rinishlari kiradi.

Issiqlik, yorug'lik, tabiatdagi suv almashuvi, magnit xossalari haqidagi tushunchalar – «Tabiat va atrofdagi olam» darslarida mukammallashib, ilmiy asoslangan ravishda takrorlanadi.

Tarbiyachi har bir yosh gruppasining mashg'ulot jadvali qanday tuzilganini bilishi lozim.

Didaktik o'inlar.

Mashg'ulotlarda va kundalik hayotda didaktik o'ynlardan hamda o'yin-mashqlardan keng foydalaniladi. Mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda o'yinlar tashkil qilib, bolalarning matematik tasavvurlari mustahkamlanadi, chuqurlashtiriladi va kengaytiriladi. Bir qancha hollarda, masalan, joyni bilish ko'nikmasini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan ishlarda o'yinlar asosiy o'quv vazifasini o'taydi.

Hilma-hil metodlar: ko'rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish), amaliy (o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar), og'zaki (tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat) metodlaridan va hilma-hil formalardan: mashg'ulotlardan ekskursiyalardan kundalik hayotga mehnatdan kuzatishlardan uchastka va tabiat burchagidan o'ynlardan foydalaniladi. Natijada nafaqat bolalarda bilimlarni egallash malaka va kunikmalarni hosil qilish qobiliyatlarini o'stirish, ilmiy dunyoqarashlarini, ahloqiy sifatlarini hulq atvorlarini shakllantirishga erishiladi, balki ushbu jarayonda bo'lajak tarbiyachilarda kasbga muhabbat ruhi ham shakllana boradi.

Tarbiyachi tabiatni bolalar bilan birgalikda kuzatishni tashkil etar ekan, tarbiyaviy bir qator vazifalarni hal etadi: bolalarda tabiat haqida bilimni shakllantiradi. Kuzatishni o'rgatadi, kuzatuvchanlikni o'stiradi, estetik jihatdan tarbiyalaydi.

Harakatli o'yinlar. Tabiatshunoslik karakteridagi harakatli o'yinlar hayvonlarning hatti harakati ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog'lik. Bolalar bu o'yinlarda harakatlarga tovushlarga taqlid qilib bilimlarni chuqurroq egallaydilar. O'yindan zavqlanish bolalardagi tabiatga bo'lgan qiziqishni chuqurlashtiradi.

Ijodiy o'yinlar. O'yinda bolalar mashg'ulot, ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olingan tasavvurlarni aks ettiradilar. Kattalarning tabiatdagi mehnati haqidagi bilimni egallaydilar. Bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanadi. Ular kattalarning tabiatdagi mehnatining axamiyatini anglab oladilar.

Tabiatdagi mehnat. Bolalar mehnat ob'ektlari o'simliklarning xususiyatlari va sifatleri ularning tuzilishi ehtiyojlari rivojlanishining asosiy bosqichlari o'stirish usullari o'simliklar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlar haqida hayvonlar, ularning tashqi ko'rinishi ehtiyojlari, harakat

qilish usullari, hatti harakatlari, hayot tarzlari va uning mavsumiy o'zgarishlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ular yashash muhiti o'rtasida mutanosiblik o'rnatishni hayvonning tabiatdagi hayot tarzi va ularni tabiat burchagida parvarish qilishni o'rganadilar.

Mashg'ulotlar maxsus loyihalar asosida ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etilishi talab qilinadi. Mashg'ulotlarda asosiy e'tibor bo'lajak tarbiyachilarning ichki imkoniyatlari va qobiliyatlarini ularning amaliy faoliyatlarida to'la namoyon bo'lishini kafolatlovchi rivojlantiruvchi ta'lim xarakterini kasb etishiga qaratilishi muhim sanaladi.

Mashg'ulot tarbiyachi tomonidan bolalarni kerakli bilim va malakalar bilan umumiy holda xabardor qilish demakdir. Mashg'ulotlar kun davomida o'tkazilib boriladi. Kunning birinchi qismiga mo'ljallangan mashg'ulotlar ancha samara beradi.

Mashg'ulot jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalari hosil qilinadi, tarbiyachining so'zini tinglash, o'rtoqlari bilan gaplashmaslik har bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga harakat qilish tarbiyachi tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga o'rganib boriladi. Har bir yosh guruhlarda necha marta mashg'ulot o'tkazish bolalar bog'chasi ta'lim-tarbiya dasturida belgilab boriladi.

- mashg'ulotni rejalashtirish;
- kerakli jihozlarni oldindan tayyorlash;
- bolalarni mashg'ulotga tayyorlash;

Bolalarni maktabga tayyorlashda tarbiyachi mashg'ulotni bir bo'limidan bitta emas, balki butun bir mashg'ulotni sistemasini rejalashtirib olib borilsa ijobiy natijani qo'lga kiritadi.

Tarbiyachi mashg'ulotlar jarayonida metodik qo'llanmalardan foydalanib mashg'ulot o'tishi tavsiya etiladi. Har bir bog'chada metodik honalar mavjuddir. Unda bolalar bog'chasi ta'lim-tarbiya dasturining, hamda hamma bo'limlari bo'yicha metodik qo'llanmalar bo'ladi.

Yetishmovchiliklarni tarbiyachi o'zi tayyorlaydi va bu ishga ba'zan tayyorlov guruhidagi ya'ni maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni jalb etadi. Tarbiyachi mashg'ulot uchun kerakli mashg'ulotlarni mashg'ulotlardan bir kun avval tayyorlab qo'yadi.

MTMning birinchi kichik guruhida haftasiga 10 ta mashg'ulot o'tkaziladi. Ular quyidagicha taqsimlanadi:

1. Atrofdagi voqealar bilan tanishtirish va nutqini rivojlantirish;
2. Rasm chizish va loy yoki plastilindan narsa yasash;
3. Qurilish materiallari bilan mashqlar;
4. Musiqa mashg'ulotlari;
5. Fizkultura mashg'ulotlariva x.o.

Mashg'ulotlar 10-15 daqiqa davom etadi va ular shanba kunidan tashqari har kuni ertalab va kechqurun o'tkaziladi. Mashg'ulotlar bilan bir qatorda sayr vaqtda atrofdagi narsalarni kuzatish, harakatli va didaktik o'yinlar rejalashtiriladi.

Mashg'ulotlarning katta qismi rivojlanishi bir xil darajada bo'lgan bolalarni birlashtiruvchi kichik gruppalarda o'tkaziladi. Batafsil tushuntirish va kattalarning yordamini talab qiladigan yangi materialdan foydalaniladigan mashg'ulotlar (masalan, yig'ma kartinalar yoki yangi konstruktor, birinchi marta beriladigan mashg'ulotlar) ana shunday o'tkaziladi. Harakatlarining navbatiga rioya qilinadigan mashg'ulotlarda bolalar uncha ko'p bo'lmasligi kerak. Masalan, gimnastika asboblari bilan o'tkaziladigan fizkultura mashg'ulotlari, shunday bo'ladi, bunda ayrim bolalar o'z aktivliklari bilan boshqalarini chetga surib qo'yishlari mumkin.

Ammo hayotning uchinchi yilida mashg'ulotlarning ayrim turlarini butun guruh bilan o'tkazish ham mumkin, chunki bola hulk-atvor qoidalarini (butun e'tibor bilan tinglash, jim o'tirish) egallagan bo'ladi, o'z harakatlarini boshqa bolalar bilan muvofiqlashtira boshlaydi, kattalarning nutqi uning harakatini yo'lga soladigan bo'ladi.

Bolalarning butun guruh bilan ayni vaqtda musiqa mashg'ulotlarini, harakatli o'yinlarni, shuningdek bolalarning o'zlari asosan tomoshabin bo'ladi gan ko'rgazmali instsenirovkalarni o'tkazish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda badiiy adabiyotdan foydalanish yuqori samara beradi. Bolalarga hayotiy voqea hodisalarni turli obrazlar misolida talqin etib berilsa bolalarning tushininshlari oson kechadi. Masalan oddiygina xalq ertagi "Zymrad va Qimmat" ertagidagi obrazlarini Zymrad va Qimmat olaylik. Bolalar bu obrazlarni bir-biriga taqqoslash orqali insondagi yaxshi fazilatlar va yomon fazilatlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Z umradning mehnatsevarligi, rostgo'yligi, mehribonligi, kattayoshdagi kishilarga nisbatan etiborliligi maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyasiga ta'sir etmadi va ularning ma'nan yuksalishiga ko'mak beradi.

Tarbiyachi ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalq o'zaki ijodidan foydalanishi, turli xil tarbiyaga oid ertaklarni Xalq dostonlarini, rivoyatlarni so'zlab berishi, o'qib berishi, qayta bolaga sozlatishi, turli xil topishmoqlardan foydalanishim mumkin.

Tarbiyachining mashg'ulotlar jarayonida yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalana olishi, bolani yosh, ruhiy-fiziologik hususiyatlarini inobatga olishi tarbiya berishning samaradorligini oshiradi.

Tarbiyachi har bir bolani imkoniyatlarini aniqlab olishi kerak, bolalar o'zi yashayotgan jamoaga munosabatiga qarab bir necha guruhlarga bo'linadi:

1. Gurux: Ijobiy hulki bolalar bo‘lib, ular tez do‘stlashadilar. Ularni jamoa a‘zolari hurmat qiladi. Bu toifadagi bolalar jamoaning faollari bo‘lib, tarbiyachi jamoa munosabatlarini o‘rnatishda ularga suyanadi.

2. Gurux: faol tashabbusga qo‘shiladi, ammo beqaror bo‘ladi.

3. Gurux: tortinchoq bo‘lib o‘yinda qatnashmaydilar, mashg‘ulotlarda sust bo‘ladilar. Bunday bolalarga alohida e‘tibor zarur. Tarbiyachi har bir guruh bolalari bilan individual yondoshib, ularni bir-biri bilan o‘zaro munosabatga kirishib, do‘stlashishga yordam beradi.

Bolalar bog‘chasining asosiy pedagogik vazifasi – bolalarni yuksak ma‘naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash va ularni maktabda o‘qishga har tomonlama tayyorlashda ota-onalarga muntazam ravishda yordam ko‘rsatishdan iborat.

Keyinchalik esa maktab ta‘limiga kirishib ketish hissini uyg‘otadi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida ta‘lim-tarbiyani har tomonlama, jumladan ma‘naviy, axlokiy, akliy, estetik, jismoniy va mexnat tarbiyalari birgalikda olib borilib bola maktabga chiqariladi. Bola bog‘chada olgan bilimlarini maktabda davom ettirishga shundagina qiynalmaydi.

Aql keng ma‘noda sezish, idrok etishdan boshlanadigan tafakkur va hayolni o‘z ichiga oladigan jarayondir.

Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning o‘rni katta. Bilimlar zahirasini kengaytirish, aqliy faollikni va mustaqillikni rivojlantirish, maktabda yaxshi o‘qish, keyingi mehnat faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartidir.

Bola 6-7 yoshdan maktabga o‘tishi, ularni maktab ta‘limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlantirish yetarli bo‘lishini ta‘minlash tarbiyachidan katta ma‘suliyatni, o‘z kasbini sevishni, bolalarga muhabbat bilan yondashishni talab etadi.

Maktabgacha ta‘lim yoshida bilim tez sur‘atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, sung mashg‘ulotlar, bilim berish orqali amalga oshiriladi.

Tevarak atrof, buyum va narsalar bolaning sezgi organlariga ya‘ni analizatorlariga ta‘sir etadi va sezgi hosil bo‘ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. (Issiq-sovuq, g‘adir-budur). Sezgi atrof-muhitni bilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Bolalarni bilimlarni egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko‘nikma egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishlari uchun mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo‘lib hizmat qiladi.

. Bilimga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, hayol, tafakkur, nutq. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir.

Mashg'ulotlarda foydalaniladigan hilma-hil metodlar: ko'rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish), amaliy (o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar), og'zaki (tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat) metodlaridan va hilma-hil formalardan: mashg'ulotlardan ekskursiyalardan kundalik hayotga mehnatdan kuzatishlardan uchastka va tabiat burchagidan o'yinlardan foydalaniladi. Natijada bolalarda bilimlarni egallash malaka va kunikmalarni hosil qilish qobiliyatlarini o'stirish, ilmiy dunyoqarashlarini, ahloqiy sifatlarini hujjatlarini shakllantirishga

va asosiy pedagogik vazifa – bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalab boradi.

XULOSA

Kadrlar tayyorlash milliy modeli tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan shaxsni har tomonlama kamolga yetkazish, yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos bo'lib, unda faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarda kasbiy ko'nikma va malakalarni tarbiyalashda xususan bo'lajak tarbiyachilarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Davlat ta'lim standartlarida bo'lajak tarbiyachini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limga qo'yiluvchi talablar belgilab berilgan. Shu sababli pedagogik ta'lim jarayonini davr talablari va mavjud ijtimoiy-ta'limiy ehtiyoj asosida tashkil etish uchun asosiy yo'nalishlarni belgilab olish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Ma'lumki ma'naviyat insonning axloq odobi, bilimi, istedodi, salohiyati, vijdoni, iymon-e'tiqodi, duyoqarashi asosida rivojlangan amaliy malakalari bir-biri bilan o'zaro aloqada jamiyat tarqqiyoti, inson kamolotiga tasir etadigan botiniy tuyg'ular hamda tashqi faolayotning bir butun yaxlit majmuidir. Lekin ma'naviyat yakka o'zi emas ahloq bilan o'zaro uyg'unlashganda insonning xulq odobi e'tiqodi aql zakovati tarbiya jarayonida o'zaro birlashgandek "ma'naviy-ahloqiy tarbiya" amalga oshadi.

Ma'naviy-ahloqiy tarbiya jarayoning o'z qonuniyatlari va tamoyillari mavjud. Tarbiyaning umumiy qonuniyatlariga uning davr tarixiy taraqqiyot, bilan aloqadorligini ko'rsatish mumkin. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya o'zaro bir-biri bilan aloqadorligi, birligi, umumiy mohiyatli va takrorlanib turuvchi ichki bog'lanishlardan iborat bo'lib, ular qonun yoki, qonuniyat tarzida namoyon bo'ladi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining ta'limiy-axloqiy qarashlarida insonning ma'naviy barkamol shaxs egallashi zarur bo'lgan talablarga ilmdan ortirilgan hislat, ichki va tashqi ko'rinishdan topilgan haqiqat, aql tufayli hosil qilingan xulq atvor mol-mulkdan ham ziyoda bo'lgan salomatlik hisoblangan. Bu talablar hozirgi davrda ham barkamol shaxs tarbiyasida mardlik, to'g'rilik, adolatparvarlik, vafodorlik, halollik, sahiylik, mehr-oqibat, insonparvarlik hislatlarini tarbiyalashda muhim manba sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalash davr talabi va ijtimoiy-ta'limiy zaruriyat bo'lib, bunday yondashuv pedagogik jarayonning ijodiy xususiyat kasb etishiga xizmat qiladi. Ushbu jarayonga texnologik yondashuv esa, mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishini ta'minlash bilan birga maktabgacha yoshdagima'naviy-axloqiy tarbiyalashda yordam beradi. An'anaviy ta'lim esa mashg'ulotlarning bir xil, standart shaklda tashkil etilishini ifodalaydiki, bu jarayonda bo'lajak tarbiyachilarning erkin, ijodiy fikrlash imkoniyatlari cheklanib, ular tomonidan tayyor bilimlar sust tinglovchilar sifatida o'zlashtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat,2008
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992
3. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat.– T.: O'zbekiston, 2006
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O'zbekiston, 1997
5. Karimov.I.A Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent. O'zbekiston 1994
6. Karimov.I.A "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida''. Toshkent. O'zbekiston 2011
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Xalq merosi, 1999
8. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat (Ibratli so'zlar). –T.: Fan, 1993
9. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. –T.: O'zbekiston, 1992
10. Ashurov N.R. O'quvchilarni mehnat va kasbga yo'naltirishda milliy qadriyatlarning o'rni: o'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: San'at, 2006
11. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. O'qituvchi, 1993
12. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. –T.: O'qituvchi,1995
13. Davlatov K.D. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar.–T.:O'qituvchi, 1995
14. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. T - Nizomiy nomidagi TDPU. Maxpirat nomidagi O'rta Osiyo xalqlari tarixi instituti.1999
15. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan, foydalanish. T.Fan, 1995.
16. Iminov T.K. Milliy urf – odat, marosim va an'alarining shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rni. Toshkent 1999 y
17. Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. Toshkent Ma'naviyat 1999 y
18. Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati: o'quv qo'llanma. T. O'qituvchi, 2003 y
19. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. –T.: O'qituvchi, 1994
20. Malik Murod. T. Cho'lpon nashriyoti. 1993
21. Mahmudov M. Komil inson – ajdodlar orzusi. Toshkent Yozuvchi. 2002
22. Mahkamov U. O'quvchilarning ahloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. Toshkent fan 1995
23. M.X.To'xtaxo'jaeva, S.Nishonova. Pedagogika 1-qisim. O'zbekiston, Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent 2010
24. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. Toshkent. Istiqlol 2003

25. N.B.Xalezova, N.A.Krochkina. Bolalar bog'chasida loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash. Toshkent, O'qituvchi, 1991
26. Ortiqov M. Ma'naviyat. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Toshkent. O'zbekiston 1997
27. Ochilov M. Muallim – qalb me'mori. Toshkent O'qituvchi 2001
28. Hasanboyeva O. Pedagogika tarixidan xristomatiya. Toshkent. O'qituvchi. 1993
29. Hasanboyeva O. Oila pedagogikasi. Toshkent. O'qituvchi 2007
30. R.Mavlonova, N.Vohidova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. T. Fan va tenologiya 2010 y.
31. Saifnazarov I. Bozor iqtisodiyoti va shaxs kamoloti. T: 1996
32. Choriyev. A. Pedagogika tarixi. T. Fan 2010
33. Usmonov I. Odobni hayotdan o'rgandim. T: O'qituvchi, 1995
34. Vohidov.R. Mahmudov M. Ma'naviyat – komillik saodati. Toshkent Ma'naviyat 1997
35. Ziyoyev H. Istiqlol ma'naviyat negizi. Toshkent Ma'naviyat 1999
36. Yusupov E. Yoshlarning ma'naviy kamoloti. Toshkent. O'zbekiston 1995

WWW.Gov.uz

WWW.EDU.uz

WWW.Ziyonet.uz